

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**IJTIMOIV-IQTISODIV FAKULTETI**

**«IQTISODIVYOT» KAFEDRASI**

**Himoyaga ruxsat etildi** Iqtisodiyot kafedra mudiri:

\_\_\_\_\_  
i.f.d., O.Xatamov  
“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 yil

**ALIMQULOV AKMAL ABDUXALIM O‘G‘LI**

**« MAHALLIV SOLIQLAR VA ULARNI UNDIRISH  
MEXANIZMINI  
TAKOMILLASHTIRISH»**

**5230600 – Moliya ta‘lim yo‘nalishi bakalavr darajasini olish  
uchun yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIV ISHI**

**Himoyaga tavsiya etiladi**

**Bajardi**

Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_  
k.o‘q. Maxmudov.O.T

Bitiruvchi: \_\_\_\_\_  
Alimqulov A.A

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 yil

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 yil

**Termiz**

	<b>MUNDARIJA</b>	
	<b>KIRISH</b> .....	
<b>I BOB.</b>	<b>MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI VA UNDA MAHALLIY SOLIQLARNING TUTGAN O'RNI.....</b>	
1.1	BUDJET TIZIMIDA MAHALLIY BUDJETLARNING AHAMIYATI VA ULAR DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	
1.2	MAHALLIY SOLIQLARNING SOLIQ AMALIYOTIDA QO'LLANILISHI HAMDA RIVOJLANISHI.....	
<b>II BOB.</b>	<b>ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA MAHALLIY SOLIQLARNING AMAL QILISH JARAYONI VA ULARNING BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI..</b>	
2.1	ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA MAHALLIY SOLIQLARNI HISOBLASH VA BUDJETGA TO'LASHNING XUSUSIYATLARI.....	
2.2	MAHALLIY SOLIQLARNING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	
<b>III BOB.</b>	<b>RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASIDA MAHALLIY SOLIQLARNI UNDIRISH MASALALARI VA MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA ULARNI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....</b>	
3.1	RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASIDA SOLIQ SIYOSATI VA UNDA MAHALLIY SOLIQLARNI UNDIRISH MASALALARI.....	
3.2	MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA MAHALLIY SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	

	<b>XULOSA</b> .....	
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	

**MAVZU: MAHALLIY SOLIQLAR VA ULARNI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.**

**KIRISH**

**1.BOB. MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI VA UNDA MAHALLIY SOLIQLARNING TUTGAN O'RNI.**

1.1. BUDJET TIZIMIDA MAHALLIY BUDJETLARNING AHAMIYATI VA ULAR DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI.

1.2. MAHALLIY SOLIQLARNING SOLIQ AMALIYOTIDA QO'LLANILISHI HAMDA RIVOJLANISHI.

**2.BOB. ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA MAHALLIY SOLIQLARNING AMAL QILISH JARAYONI VA ULARNING BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.**

2.1. ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA MAHALLIY SOLIQLARNI HISOBLASH VA BUDJETGA TO'LASHNING XUSUSIYATLARI.

2.2. MAHALLIY SOLIQLARNING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.

**3.BOB. RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASIDA MAHALLIY SOLIQLARNI UNDIRISH MASALALARI VA MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA ULARNI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.**

3.1. RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASIDA SOLIQ SIYOSATI VA UNDA MAHALLIY SOLIQLARNI UNDIRISH MASALALARI.

## 3.2. MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA MAHALLIY SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR.**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

#### **KIRISH**

**Bitiruv malakaviy ishi mavzuning dolzarbligi.** Mahalliy soliqlar bilan bog'liq moliyaviy munosabatlarni isloh qilishda davlat va mahalliy byudjetlarning solikli daromadlari o'rtasidagi nisbat munosabatlarini o'rganish bilan birga mahalliy soliqlarni undirish mexanizmlarini bilish, ularni fiskal ahamiyatini yaqqolroq ko'rish imkoniyatiga ega bo'lish muhimdir.

2017-2021 yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi bosqichi boshlanishining asosi bo'ldi<sup>1</sup>. Harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo'nalishi – “iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari” deb nomlanib, mazkur yo'nalishning 3.5-bandi “viloyatlar, tumanlar va shaharlarni kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish”ga mo'ljallangan chora-tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Jumladan, mamlakat barcha hududlarini jadal rivojlantirish, bunda alohida e'tibor rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni qisqartirish, subventsiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirishga qaratiladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral

Bizga ma'lumki byudjetning solikli tushumlari budjet daromadida muhim rol o'ynaydi, shuningdek aytish joizki, mahalliy soliqlar mahalliy byudjetlarning asosiy daromad manbaidir. Shu bois soliqlarni o'z vaqtida mahalliy byudjetga kelib tushishi va undirilishida mavjud muammolarni niqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bitiruv ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Malakaviy ish mavzusining o'rganilganlik darajasi.** Mahalliy soliqlarning nazariy asoslari va soliq tizimiga oid muammolar xorijiy iqtisodchi olimlardan, L.Drobozina, B.Ragozin, M.Romanovskiy, V.Rodionova, P.Samuelson, D.Chernik, T.Yutkina va boshqalarning ilmiy asarlarida batafsil yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimiz hududiy shart-sharoitlarini inobatga olgan holda, bir qator olimlarimiz, M.Sharifxo'jaev, E.Gadoev, T.Malikov, O.Olimjonov, Q.Yahyoev, V.Galkin, N.Zavalishina, J.Zaynalov, A.Qodirov, H.Sobirov, Sh.Toshmatov, S.Jubaev, A.Mamanazarov, A.Suvanov, Q.Tojiboeva N.Haydarov, M.Alimardonov, A.Jo'raev, B.Toshmurodova, va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi va vazifalari.** Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlarning holatini tadqiq etish asosida ularning samaradorligini oshirish bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun ishda quyidagi vazifalar qo'iilgan:

- mahalliy soliqlarlarning iqtisodiy mohiyatini, vazifalarini nazariy jihatdan o'rganish;
- iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida mahalliy byudjetlarning iqtisodiy mohiyati nazariy jihatdan qayta ko'rib chiqish;
- mahalliy soliqlarning elementlarini amaldagi holatini o'rganish;
- mahalliy byudjetlarning daromadlari tarkibi va va ularni amaldagi holatini tahlil qilish;

- byudjet-soliq siyosatini samaradorligini oshirish yo'nalishlari aniq yo'llarini ko'rsatish;
- mahalliy soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Malakaviy ishning predmeti mahalliy byudjetlar daromadlarini mahalliy soliqlar orqali shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

**Izlanish ob'ekti sifatida** O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlari, Surxondaryo viloyati mahalliy byudjetining faoliyatlari belgilab olindi.

**Izlanishning uslubiy - metodik asosini** ilmiy bilishning dialektik usuli, statistikmatematik, tarkibiy-qiyosiy, funktsional-ob'ektiv tahlil usullari, iqtisodchi-olimlarning moliya-byudjet munosabatlari nazariyasi va amaliyoti sohasiga oid ishlari tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi** muallifning quyidagi ishlanmalarida namoyon buldi:

- mahalliy soliqlarning iqtisodiy mohiyatini , vazifalarini nazariy jihatdan o'rganildi;
- mahalliy byudjetlarning iqtisodiy mohiyati, moliyaviy resurslarning tarkibi va ularni boshqarishning nazariy asoslari o'rganildi;
- mahalliy soliqlarlar amal qilish mexanizmlari o'rganildi;

Byudjet tizimining asosiy bo'g'ini-mahalliy byudjetlar daromadlari shakllanishi holati tahlil qilindi;

- hududlarni iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash maqsadida mahalliy byudjetlarni daromad bazasini mustahkamlash yuzasidan takliflar berildi;
- mahalliy byudjetlar daromad qismi samarali ijrosini ta'minlash maqsadida byudjet va soliq qonunchiligidagi hozirgi zamon talablari asosida byudjet-soliq siyosatini o'rganilib, uni takomillashtirish yuzasidan takliflar berildi;
- mahalliy soliqlarni undirishdagi muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rsatildi.

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati shundaki**, undagi taklif va tavsiyalar mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish ta'minlashga, mahalliy soliqlar va yig'implar tizimini takomillashtirishga, mahalliy byudjetlar mustaqilligi va moliviy imkoniyatlarning yanada mustahkamlanishiga amaliy yordam beradi. Shuningdek ushbu malakaviy ish mavzusi dolzarbligi jixatidan moliya-soliq ta'lim yo'nalishi talabalariga va magistrlik izlanishini boshlovchilar, shu tizim xodimlari va qiziquvchilari uchun foydalanish imkonini beradi.

**Ishning tarkibiy tuzilishi.** Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, uchta bob, xulosa va takliflar qismi, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

Malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, maqsad va vazifalari belgilangan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan.

Birinchi bob "Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishning nazariy jihatlar va unda mahalliy soliqlarning tutgan o'rni" deb nomlangan bo'lib, unda mahalliy budjetlarning iqtisodiy ahamiyati, mahalliy soliqlarning iqtisodiy mohiyati va vazifalari mahalliy byudjetlarni shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati ifodalangan.

Ikkinchi bob "Erkinlashtirish sharoitida mamlakatimiz soliq tizimida mahalliy soliqlarning amal qilish jarayoni va ularning budjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati" deb nomlangan bulib, unda mahalliy soliqlar va ularning amal qilish mexanizmlari, mahalliy byudjet daromadlari ijrosi tahlil qilinib, ular bo'yicha mulohazalar keltirilgan.

"Rivojlangan davlatlar tajribasida mahalliy soliqlarni undirish masalalari va mamlakatimiz soliq tizimida ularni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari" nomli uchinchi bobda, byudjet-soliq siyosatini samaradorligini oshirish yo'nalishlari bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganilib, mahalliy soliqlarni undirishni takomillashtirish, mahalliy byudjetlar daromad bazalarini kengaytirish masalalari yoritilgan.

Xulosa qismida mavzu buyicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

## **1.BOB.MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI VA UNDA MAHALLIY SOLIQLARNING TUTGAN ORNI.**

### **1.1. BUDJET TIZIMIDA MAHALLIY BUDJETLARNING AHAMIYATI VA ULAR DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.**

Xalq manfaatlariga mos bo`lib tushadigan mustaqil iqtisodiy siyosat xar qanday davlatning erkin rivojlanishida majburiy shart hisoblanadi. Bozor munosabatlariga o'tish bilan bog`liq tub o`zgarishlar, o`tkazilayotgan islohotlarning uzoq vaqt davom etadigan va murakkab jarayonlari iqtisodiyotni barqarorlashtirish yuzasidan choralar ko`rishni talab qiladi. Bunda davlat byudjeti munosabatlari g`oyat katta muhim o`rin tutadi. O`z navbatida shuni aytib o'tishimiz kerakki, davlat byudjeti - pul resurslarining markazlashtirilgan fondi bo`lib, mamlakat hukumati davlat apparati va qurolli kuchlarini tutib turish shuningdek, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajarishi uchun uni tasarruf etadi. Xozirgi shart-sharoitda byudjet davlatning iqtisodiyotini tartibga solish, xo`jalik kon'yukturasiga ta'sir ko`rsatish, shuningdek, hududlarni rivojlantirish chora-tadbirlarni amalga oshirishning qudratli vositasi hamdir. Davlat byudjeti davlat moliyasi tizimida markaziy o`rinni egallaydi. Xususan, byudjet tizimi murakkab mexanizm bo`lib, muayan mamlakatning o`ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishini, shuningdek, davlat qurilishini aks ettiradi. Byudjet tizimi muayan davlatning tavsiflaydigan ijtimoiy-iqtisodiy huquqiy va boshqa xususiyatlarining butun majmui asosida shakllanadi.

Xozirgi davlat byudjeti uning butun hilma-hil funksiyalarini aks ettiradigan murakkab, ko`p ko`rinishli xujjat hisoblanadi. Avvalo byudjetda davlat xarajatlari



va daromadlari tartibi o'z aksini topadi. Mamlakat byudjetining tarkibi avvalo uning davlat qurilishiga bog'liq. Unitar tizimga ega bo'lgan mamlakatlarda, byudjet tizimi bamisoli ikki qavatli qurilmaga-davlat byudjeti va mahalliy byudjetlarga ega bo'ladi. Federativ tizimga ega bo'lgan mamlakatlarda oraliq bo'g'inlar-shtatlar, o'lkalar va ularga muvofiq ma'muriy tuzilmalarning shtatlari mavjud.

Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektori uchun eng qulay shart - sharoitlarni yaratish bilan bog'liq xarajatlar davlat byudjeti xarajatlarning eng muhim moddalari qatoriga kiradi. Ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etishga doir, ta'lim, sog'liqni saqlash xarajatlari ham borgan sari ko'proq o'rinni egallamoqda.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan barcha mamlakatlar qatori, bizning mamlakatimizda ham byudjet daromadining salmoqli qismi soliqlarga soliq vazifasini bajaruvchi to'lovlar, yig'imlar hisobidan shakllanadi. Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hukumat organlarining faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar ishlab chiqarishning yakuniy natijalarini aholiga yetkazishning asosiy yo'nalishini belgilab beruvchi vositadir. Mahalliy byudjetlar orqali ijtimoiy iste'mol fondlari aholining ayrim guruhlariga o'rtasida taqsimlanadi.<sup>35</sup> Mahalliy byudjetlarning iqtisodiy mohiyati ularning vazifalarida namoyon bo'ladi.

Ular:

- hukumat mahalliy organlarining faoliyatini moliyaviy ta'minoti bo'lib hisoblanadigan pul fondlarini shakllantirish;
- mazkur hudud iqtisodiyot tarmoqlariga bu fondlarni taqsimlash va ishlatish;
- mahalliy hukumat organlariga qarashli korxonalar,, tashkilotlar muassasalarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini nazorat qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Mahalliy byudjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy

infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlarni taqsimlash va aholiga yetkazish asosan byudjet tizimi orqali amalga oshiradi. Ma'lumki, iste'mol fondlarining asosiy qismi byudjetlar orqali shakllantiriladi. Bunda xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, uy-joy komunal xizmat sohasi bilan bog'liq asosiy xarajatlar mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan ijtimoiy himoya bilan bog'liq siyosatni amalga oshirish katta miqdordagi moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi va bu muhim vazifalar mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan. Aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq chora tadbirlarni moliyalashtirish asosan mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi. Umumdavlat pul mablag'larini byudjet zvenolari o'rtasida taqsimlanishining asosini, hududiy davlatlar mustaqilligi, ularni davlat tomonidan moliyaviy, qo'llab-quvatlanishi, ular daromadlarini hududiy manbalar hisobidan shakllanishi tamoyillari tashkil etadi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlarning daromadlari o'z daromadlari va boshqariladigan manbalar hisobidagi daromatlardan shakllanadi. Mahalliy byudjetlar - Qoraqalpog'iston respublikasi byudjeti, viloyatlar byudjetlari, Toshkent shahar byudjeti, hamda mazkur byudjetlarga kiruvchi quyi (shahar, tuman) byudjetlarni o'z ichiga oladi. Ularning daromadlari va xarajatlari tarkibi, byudjet jarayoni va byudjet huquqi qonun bilan belgilangan.

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston respublikasi davlat byudjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hukumat organlarining faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi. shuningdek, mahalliy byudjet asosiy moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo'nalishlarini to'liq qamrab oladi.

Yuqoridagilar bilan birgalikda, mahalliy byudjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda yaratilgan YaIMni taqsimlash va aholiga yetkazish asosan byudjet tizimi orqali amalga oshiradi. Bunda xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy

ta'minot, uy-joy kommunal xizmat sohasi bilan bog'liq asosiy xarajatlar mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan ijtimoiy himoya bilan bog'liq siyosatni amalga oshirish katta miqdordagi moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi va bu muhim vazifalar mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan. Aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq chora- tadbirlarni moliyalashtirish ham asosan mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi.

Umumdavlat pul mablag'larini byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishining asosini hududiy byudjetlar mustaqilligi, ularni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvatlanishi, ular daromadlarini hududiy manbalar hisobidan shakllanish tamoyillari tashkil etadi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlarning daromadlari o'z daromadlari va boshqariladigan manbalar hisobidagi daromadlardan shakllanadi. Mahalliy byudjetning mablag'lari turli darajadagi byudjetlar o'rtasida quyidagi tarzda qayta taqsimlanadi:

-umumdavlat soliqlari va boshqa umumdavlat daromadlari bir qismining belgilangan me'yorlarida turli daraja byudjetlariga ajratilishi;

- yuqori byudjetlardan quyi byudjetlarga byudjet subventsionalari va dotatsiyalarining ajratilishi;

- yuqori byudjet bo'g'inidan quyi byudjet bo'g'inlariga, quyi byudjet bo'g'inlaridan yuqori byudjet bo'g'inlariga byudjet ijrosi jarayonida yuzaga keluvchi o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'larning yo'naltirilishi; -

byudjet ssudalarining ajratilishi.

Mahalliy byudjetning xarajatlari bu mahalliy hokimiyatning o'z funksiyalari bilan bog'liq, ravishda yuzaga keladigan sarf-xarajatlarni aks eggiruvchi iqtisodiy munosabatlar bo'lib, ular asosida mahalliy region pul mablag'lari jamg'armasini taqsimlaydi.

Jamiyatning iqtisodiy hayotida ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda davlat rolining oshishi byudjet xarajatlarning turli-tuman ko'rinishlarda bo'lishini asoslaydi. Bu o'z navbatida bir qator omillar bilan bog'liqdir. Bular jumlasiga quyidagi asosiy omillarni ko'rsatish mumkin:

- davlatning funksiyalari va geografik joylashishi;
- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi;
- davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi;
- byudjet mablag'larini berishning shakllari va shu kabilar.

Ushbu omillarni muvofiqlashtirish davlat rivojlanishining xar bir bosqichida iqtisodiyot ehtiyojlari, iqtisodiyotni boshqarish darajasi va ko'rinishlariga mos keluvchi xarajatlar tizimini keltirib chiqaradi. Byudjet xarajatlarini ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etishiga ko'ra joriy va kapital byudjet xarajatlariga ajratiladi. Joriy byudjet xarajatlari yuridik shaxslarga o'zlarini saqlash va kundalik ehtiyojlarini qoplash uchun beriladigan moliyaviy mablag'larni ifodalaydi. Bu xarajatlar davlat iste'mol uchun xarajatlarni, hukumatning quyi tashkilotlariga, davlat va boshqa mulk shaklidagi korxonalariga beriladigan joriy subsidiyalarni transport to'lovlarini, davlat qarzi bo'yicha foizlarini to'lash va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Kapital xarajatlar bu asosan kapitalga qo'yilmalar va zaxiralarning ko'payishi bilan bog'liq pul sarflarini o'zida aks ettiradi. Biz xarajatlar xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga byudjet hisobidan kapital qo'yilmalarni, investitsiya subsidiyalarini va davlat tasarrufidan tashqaridagi korxonalar hamda hukumatining mahalliy korxonalariga uzoq muddatli byudjet kreditlarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy yo'nalishiga ko'ra byudjet xarajatlarning guruhlanishi davlatning bajaradigan iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa funksiyalarini aks ettiradi. Bunga muvofiq byudjet xarajatlari to'rt guruhga bo'linadi:

- ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirish;
- markazlashgan investitsiya xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlarini moliyalashtirish; - mudofaa.

Tarmoqlarga ko'ra byudjet xarajatlarning guruhlanish iqtisodiyotni umumiy ravishda qabul qilingan tarmoqlar va faoliyat turlariga bo'linishiga asoslangan.

Shunga ko'ra, ishlab chiqarish sohasiga xarajatlar xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha sanoatni qishloq xo'jaligini, kapital qurilishni, transport, aloqa, savdo va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishga, noishlab chiqarishga, maorif, sog'liqni

saqlash, ijtimoiy ta'minot, sport, vaqtlı matbuot, davlat boshqaruvi va hokazolarga bo'linadi.

Xarajatlarni tarmoqlar bo'yicha bo'linishi byudjet mablag'larini taqsimlashda mutanosibliklarni aniqlash va ularni o'zgartirish orqali ijtimoiy ishlab chiqarishning tarmoq tuzilishida zarur siljishlarga erishish imkonni beradi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda byudjet xarajatlari maqsadga ko'ra ham sarflanadi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida xarajatlarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha guruhlarga ajratib qo'llaniladi:

- ish haqi;
- kanselyariya va xo'jalik xarajatlari;
- xizmat safari xarajatlari;
- o'quv xarajatlari;
- stipendiya;
- oziq-ovqat xarajatlari;
- dori-darmon va bog'lovchi vositalarni sotib olish xarajatlari;
- yumshoq anjomlar va maxsus kiyimlarni sotib olish;
- bino va inshootlarni kapital ta'mirlash xarajatlari;
- davlat kapital qo'yilmalari;
- boshqa xarajatlar.

Byudjet xarajatlarining muhim tamoyili himoyalanganlik hisoblanadi. Bu tamoyil byudjet xarajatlarining ma'lum moddalarini inflyaqiya natijasida milliy valyutani qadrsizlanishi hisobiga ko'payishini inobatta olgan holda to'liq hajmda moliyalashtirishni ko'zda tutadi. Byudjet xarajatlarining himoyalangan moddalar tarkibiga ish haqi, nafaqa, stipendiya, davlat nafaqalari va aholiga boshqa to'lovlar, ovqatlanish uchun xarajatlar, dori-darmon va boglovchi vositalar, yumshoq anjom va uskunalarni sotib olish, xujalik xarajatlarining ma'lum qismi va boshqa xarajat turlari kiradi.

Ushbu xarajatlarni amalga oshirish byudjetdan moliyalashtirish yordamida erishiladi. Byudjetdan moliyalashtirish deganda byudjetda ko'zda tutilgan tadbirlarni utkazish uchun korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga pul

mablag'larini berish tizimi tushuniladi. Byudjetdan moliyalashtirish ma'lum tamoyillarga asoslanadi hamda mablag'larni berishning o'ziga xos shakli va usullari bilan ifodalanadi. Byudjetdan moliyalashtirishning tamoyillari, shakllari va usullari byudjet tizimining tarkibiy tuzilishi bo'lib katnashadi hamda uning amal qilish natijalariga ta'sir etadi.

Byudjetdan moliyalashtirish amaliyotida moliyalashtirishning ikki shakli qo'llaniladi. Birinchisi, tasdiqlangan byudjetda ko'zda tutilgan sarflar uchun byudjet mablag'larini ajratishni ko'zda tutadi. Ikkinchisi, byudjetdan to'liq moliyalashtiriluvchi korxonalar, tashkilotlar uchun qo'llaniladi. Bu holda byudjetdan mablag'lar byudjet muassasalarini kundalik saqlash va ular faoliyatini kengaytirish bilan bog'liq barcha xarajatlar uchun ajratiladi.

Byudjetdan moliyalashtirishning muhim qismi bo'lib byudjetdan mablag'lar berish usullari hisoblanadi. Ular yordamida moliya tashkilotlari byudjetda ko'zda tutilgan tadbirlarni pul mablag'lari bilan ta'minlaydi, mablag'lardan foydalanishning boshqa natijalariga erishish maqsadida ularni qayta taqsimlanishini amalga oshiradi, moliyaviy resurslarni taqsimlashdagi mutanosibliklarni tartibga soladi.

Mahalliy byudjet xarajatlarining yunalishlariga to'xtaladigan bo'lsak ular quyidagilardan iboratdir:

- xalq xo'jaligini moliyalashtirish xarajatlari;
- kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish xarajatlari;
- ijtimoiy madaniy tadbirlar xarajatlari;
- aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari;
- boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari;

So'nggi davrlargacha byudjet xarajatlarining asosiy qismi xalq xo'jaligini moliyalashtirishga sarflanib kelgan. hozir bozor munosabatlarning shakllanib borishi esa byudjet mablag'larini sarflash tizimini o'zgartirishni talab etadi.

Shuning uchun ham xalq xo'jaligini moliyalashtirish bo'yicha mahalliy byudjetdan moliyalashtirish xarajatlari hajmi qisqartirildi. Buning asosiy sababi quyidagilardan iborat, ya'ni:

- mulkchilik shakllarining kupayib borishi, xujalik sub'ektlarining o'z mulkiga tula egalik xukuqini berilishi munosabati bilan korxonalariga dotatsiyalar berish astasekin to'xtatildi;

- narxlarni erkinlashtirish tufayli oziq-ovqat va sanoat mahsulotlarining ko'plab turlari bo'yicha narxlar o'rtasidagi farqni qoplashga ajratiladigan dotatsiyalar bekor qilindi;

- davlat mulkini xususiylashtirish dasturini ketma-ket amalga oshirish va davlat bo'g'inining keskin qisqarishi;

- byudjet mablag'larini sarflashda qattiq tejamga erishish.

Bunda iqtisodiyotni barqarorlashtirish va uning rivojlanishi uchun sharoitlarni yaratish bilan bevosita bog'liq bo'lgan har qanday sarflarni byudjet xarajatlari tarkibidan chiqarish hamda ajratilgan byudjet mablag'larini to'g'ri ishlatishni nazorat qilish yo'lini qo'llash zarur.

Mahalliy byudjet orqali kapital quyilmalarni moliyalashtirish uchun mablag' ajratiladi. Bu esa iqtisodiy rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga egadir. Kapital quyilmalarni moliyalashtirish, ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga moliyalangan amal qilayotgan asosiy fondlarni kengaytirish, qayta ta'mirlash va texnik qayta jihozlash, yangilarini yaratishga pul mablag'lari berishdir. Bunda byudjetdan moliyalashtirish iqtisodiyotining davlat bo'g'inida amalga oshirilayotgan kapital quyilmalariga nisbatan qo'llaniladi.

Mahalliy byudjet xarajatlarining yana muhim yo'nalishi bu ijtimoiy-madaniy tadbirlardir. Ushbu tadbirlarni moliyalashtirish xarajatlari xalq ta'limi, madaniyat, sanoat, va ommaviy axborot vositalari, sog'liqni saqlash, sport, ijtimoiy ta'minot kabi sohalarga yo'naltiriladi.

Mahalliy byudjet xarajatlarining respublikamiz uchun xos bo'lgan yo'nalishi bu aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlaridir. Bu xarajatlar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan chetdan yordamga muhtoj yolg'iz, qarovchisi yo'q, nafaqaxo'rlarni tekin oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash xarajatlari, 2-yoshgacha bola tarbiyasidagi ishlamaydigan onalarga oylik nafaqa to'lovlari xarajatlari, ijtimoiy muxofazaga muhtoj oilalarga moddiy yordam puli xarajatlarini o'z ichiga oladi. Byudjet

xarajatlarini bu yo'nalishi asosan aholining zaif qatlamlarini moddiy qo'llabquvvatlashning shakllaridan biridir.

Mahalliy byudjet xarajatlarining so'nggi yo'nalishi boshqaruv sohasi bo'lib, bu xarajatlar quyidagilarga sarflanadi, ya'ni:

- xuquq-tartibot organlarini, sud va prokuratura organlarini saqlab turish;
- davlat xokimiyati organlarini saqlab turish;
- saylovlar o'tkazish va boshqalar.

Ma'lumki, respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga ajratiladigan byudjet subventsiyalari va dotatsiyalari davlat byudjeti haqidagi qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunday ajratmalar miqdori quyidagilarga bog'liq:

- hududlar moliyaviy holatiga, jumladan, ularni o'z daromad bazalarining yetarligiga;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa umumdavlat vazifalari va dasturlariga;
- hududlar bo'yicha tovar (ish, xizmat)lar qiymatidagi farqlarga;
- har qaysi hududlar aholisining soniga;
- ushbu hududda joylashgan tashkilotlarning byudjet ajratmalariga bo'lgan ehtiyojiga;
- hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblik (tafovut)ni bartaraf etish uchun hisobga olinadigan boshqa omillarga.

Mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlaridagi kassa tafovuti kassadagi naqd pul aylanmasiga, yuqori byudjetlar ssudalari hisobiga, oldingi davrlardagi foydalanilmay qolgan byudjet mablag'lari hisobiga qoplanadi.

Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarish tizimida mahalliy byudjetlar rioya qilishi lozim bo'lgan ma'lum cheklanishlar muhim ahamiyatga ega. Mahalliy byudjetlar byudjet qonunchiligiga ko'ra, balanslashgan daromadlar va xarajatlar tizimiga ega bo'lishlari zarur. Mahalliy byudjetlarning haqiqatdagi taqchilligi bo'lishi mumkin emas.



Mahalliy byudjetlar xarajatlariga qattiq byudjet cheklovlarini qo'llash bir vaqtning o'zida, soliq tushumlarining o'sishini ham hisobga olishi va yetarlicha byudjet mustahkamligi hamda sharoitga moslashuvchanlikni ham talab etadi.

Bugungi kunda respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida xarajat majburiyatlaridagi cheklovlar egiluvchan, biroq bir tizimga solinmagan ko'rinishga egadir. Byudjet kodeksi bilan respublika va mahalliy byudjetlardan tarmoqlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishning cheklovlari va qonuniy mustahkamlanishi amalga oshirilgan. Biroq, keltirilgan cheklovlar respublika va mahalliy byudjetlar xarajatlarini moliyalashtirish jarayonidagi ma'lum nomutanosibliklarni bartaraf qilmaydi.

Moliya Vazirligi va hududiy moliya boshqarmalari o'rtasidagi kelishmovchiliklar mahalliy byudjetlar xarajatlarini taxminlashtirish bosqichidayoq yuzaga keladi. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini taxminlashtirishda Moliya Vazirligi mavjud ikoniyatlardan, ya'ni taxmin qilinayotgan daromadlardan kelib chiqadi. Hududlar darajasida xarajatlarni taxminlashtirish joylardagi real ehtiyojlardan kelib chiqib amalga oshiriladi, bu esa mos ravishda Moliya Vazirligi taxminlarini oshirib yuboradi. Markaz va hududlar moliyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish jarayonida mahalliy byudjetlar xarajatlarining optimal taxmini aniqlanadiki, ushbu miqdor daromad bazasidan kelib chiqadi.

Mahalliy byudjetlarni taxminlashtirishga yondoshuvlardagi va markaziy hamda mahalliy organlar tomonidan yagona yondoshuvni qo'llashdagi nomutanosibliklarni mahalliy byudjetlar xarajatlarini qat'iy me'yorlar asosida taxminlashtirishda bartaraf qilish mumkin.

Mahalliy byudjetlar xarajatlarini baholashning nisbatan asoslangan usuli ovqatlanish uchun xarajatlarning tibbiy me'yorlarini, ta'lim sohasida uslubiy materiallar va bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchi soni me'yorlarini, byudjet tashkilotlari uchun kommunal xizmatlari xarajatlari bo'yicha limitlarni va boshqalarni hisobga oluvchi yagona davlat me'yorlari asosida xarajatlarni moliyalashtirish maydonga chiqadi.

Biroq, byudjet xarajatlarini yagona davlat me'yorlari asosida (ijtimoiy jihatdan maqbul va ilmiy asoslangan) mahalliy byudjetning real daromadlari bilan bog'lanmagan holda rejalashtirish hozirgi vaqtda byudjetning xarajatlar qismini daromadlar qismidan sezilarli darajada ortib ketishiga olib kelmoqda. Shu boisdan ta'kidlash lozimki, bu kabi yagona davlat me'yorlarini hozirgi sharoitda qo'llash xarajat moddalari bo'yicha mahalliy byudjetlar xarajatlarini ongli tarzda qisqartirishni anglatadi va bu holat xarajat guruhlaridagi u yoki bu moddalar bo'yicha moliyalashtirish darajasining asoslanmagan tarzda keskin tebranishlariga olib keladi. Buning natijasida mahalliy moliya organlari va Moliya Vazirligi o'rtasida mahalliy byudjetlar xarajatlarini taxminlashtirish yuzasidan kelishmovchilik va nomutanosibliklar saqlanib qolayotir. Bundan tashqari byudjet xarajatlarining ijtimoiy maqbul va asoslangan davlat me'yorlari ma'lum ijtimoiy standartlar (iste'mol byudjeti minimumi, yashovchanlikinimumi va h.k.)ning ham qonuniy tarzda tasdiqlanishini talab etadiki, bu holat yaqin kelajakda yagona davlat me'yorlarini qo'llashning imkoniyatlari cheklanganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash - mahalliy soliqlar o'rtasidagi nisbatini optimallashtirishga qaratilgan tadbirlar dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bo'lgani kabi iqtisodiyotni rag'batlantiruvchi va tartibga soluvchi soliq tizimini vujudga keltiradi. Umuman olganda mahalliy soliqlarni isloh qilishda soliqlar o'rtasidagi nisbat munosabatlarini o'rganish soliq turlari fiskal ahamiyatini yaqqolroq ko'rish imkoniyatini yaratish bilan bir qatorda, kelajakda qaysi soliq turlarini qayta ko'rib chiqish zarur bo'lishi va bu borada qilinishi lozim bo'lgan islohotlar to'g'risida ham xulosa chiqarish imkonini beradi.

## **1.2. MAHALLIY SOLIQLARNING SOLIQ AMALIYOTIDA QO'LLANILISHI HAMDA RIVOJLANISHI.**

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati bevosita soliqlarning iqtisodiy funksiyalari va guruhlanishiga bog`liq. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va jismoniy shaxslar o`rtasida vujudga keluvchi ob'ektiv majburiy to`lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo`lib, milliy daromadning bir qismi bo`lgan pul mablag`larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, soliq tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Soliqlar davlat va jamiyatning moliyaviy mablag`larga bo`lgan extiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo`yilgan holda va o`rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to`lovdir. Soliqlarning o`ziga xos belgilari mavjud bo`lib, majburiylik, xazinaga tushishi, qat'iylik hamda doimiylik va aniq soliq to`lovchi uchun ekvivalentsizlik belgisidir.

Soliq va yig`imlar majburiy bo`lib, bunda davlat soliq to`lovchining bir qism foydalarini majburiy badal sifatida byudjetga olib qo`yadi. Bu majburiylik Oliy Majlis tasdiqlab bergan Soliq Kodeksining qoidalari asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy tomondan davlat uchun kafolatlangan.

Soliqlaralbatta xazinaga - davlat byudjetiga tushadi. Bordi-yu, to'lov boshqa ixtiyoriy fondlar - «Iste'dod», «Nuroni» kabi jamgarmalariga tushsa, unda soliq munosabati bo'lmaydi.

Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda bo'ladi. Tarixda 50 va 100 yillab o'zgarasdan xarakatda bo'lgan soliqlarmavjud. Ilmiy asosi qancha chuqur bo'lsa, soliqlarshuncha qat'iy va uzoq yillar o'zgarasdan xarakat qiladi.

Davlatga to'langan soliq summasi to'lovchining o'ziga to'liq qayitib kelmaydi, ya'ni u ekvivalentsiz pul to'lovidir. Soliqlarbyudjetga kelib tushadigan, majburiy xarakterga ega bo'lgan pul to'lovi munosabatlaridir. Soliqlarning mohiyati soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi doimiy, uzoq muddatli munosabatlarda o'z ifodasini topadi.

Soliqlarning ob'ektiv zarurligi davlatning bajaradigan qator funktsiyalarini mablag' bilan ta'minlashning zarurligidan kelib chiqadi. Davlatning bajaradigan funktsiyalari ko'p va bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba'zi funktsiyalar yo'holsa, ba'zilari paydo bo'ladi. xar qil mulk shaklidagi xo'jaliklarning paydo bo'lishi hozirgi sharoitda ular faoliyatiga davlatning aralashuvini yog'tirmaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xar bir xo'jalik o'zi erkin faoliyat ko'rsatadi va butun faoliyatiga o'zi javob beradi. Davlatning aralashuvi qonun bilan, ya'ni soliqlar orqali amalga oshiriladi.

Soliqlarning turi, ularni undirish usullari, soliqqa tortishning maqsadlaridan qat'iy nazar ularning iqtisodiy mohiyati o'zgaraydi. Boshqacha qilib aytganda davlat soliqlarsiz yashay olmaydi. Davlat bor joyda soliqqa tortish ham bo'ladi. Soliqlardavlatning yashash shartidir. Frantsuz jamoat arbobi P'er Jozef Pruden ham, «mohiyatan soliqlar masalasi davlat masalasidir»- degan edi.

Bir xil mohiyatga ega va o'zaro munosabatda bog'liq bo'lib, markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq va yig'imlar turlarining yig'indisiga soliq tizimi deb ataladi. Bu ta'rifda soliq va yig'imlar yagona mohiyat "ya'ni, majburiy harakterga ega bo'lgan munosabat" va ularning bir-biri bilan bog'liqligi va nig'oyat byudjetga tushishligini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston Respublikasi soliq Kodeksi mazmuniga mos keladi. Shu yerda baxsli masala ham mavjud, ya'ni

davlatning byudjetdan tashqari fondlariga to'lovlarni ham majburiylik nuqtai nazaridan soliq tizimiga kiritish muamosi mavjud. qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarning tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari yig'indisiga soliqqa tortish tizimi deb ataladi.

2008 yildan joriy qilingan Soliq Kodeksining 1-bo'lim, 3- bob, 23moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlarga boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi.

Soliqlarga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) er qaridan foydalanuvchilar uchun soliqlarga maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) er solig'i;
- 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 10) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yog'ilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- 1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar: yagona ijtimoiy to'lov; fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga suqurta badallari; byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- 2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar: Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar; Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;
- 3) davlat boji;
- 4) bojxona to'lovlari;
- 5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida ko`rsatilgan soliqlarga boshqa majburiy to`lovlar umumbelgilangan soliqlardir.

Ushbu Kodeksda belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to`lanadigan quyidagi soliqlar qo`llanilishi mumkin:

- yagona soliq to`lovi;
- yagona yer solig`i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo`yicha qat`iy belgilangan soliq.

Ushbu modda ikkinchi qismining 1–6-bandlarida, uchinchi qismining 1–4-bandlarida, beshinchi qismining ikkinchi va to`rtinchi xatboshlarida nazarda tutilgan soliqlar hamda boshqa majburiy to`lovlar umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to`lovlardir. Ushbu modda ikkinchi qismining 7–10-bandlarida, uchinchi qismining 5- bandida, beshinchi qismining uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan soliqlar hamda boshqa majburiy to`lovlar Mahalliy soliqlarga boshqa majburiy to`lovlar jumlasiga kiradi.

Korxonalariga soliq solish yo`lidagi muhim qadamlardan biri-korxonalarining mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy qilinishi hisoblanadi. Mol-mulk solig`i O`zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to`g`risida»gi 225-sonli Qonuniga asosan 1992 yil 1 yanvardan joriy etildi va shu bilan birga korxonalarining ishlab chiqarish fondlariga to`lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig`i to`g`ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko`ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo`yicha tushumlar summasi to`liq mahalliy budjetlarga tushadi va u mahalliy budjetlarning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Soliq tizimida mol-mulk solig`ini joriy qilishdan ko`zlangan maqsad, birinchidan, korxonalar o`zlarining xo`jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg`otish bo`lsa, ikkinchidan, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag`batlantirishdan iboratdir. Xo`jalik yurituvchi sub`yektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to`lashga majbur

qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalardan qutulishga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan «Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'g'risida»gi Qonuniga asosan 1994 yil 1 yanvardan joriy etildi. Soliq kodeksiga ko'ra soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning molmulkiga solinadigan *soliqni to'lovchilar* bo'lib hisoblanishadi.

Yer solig'i O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan «Yer solig'i to'g'risida»gi Qonuniga asosan joriy etildi.

Yer solig'i O'zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig'imlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy budjetlarning barqaror daromad manbai hisoblanadi.

Yer solig'i boshqa soliq turlaridan farqli o'laroq, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra u renta to'lovidir yoki boshqacha qilib aytganda ushbu soliq yer egalari va yerdan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog'liq emas. Demak, ushbu soliq joriy etilishidan maqsad-yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan yerlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infratuzilma rivojlanishini ta'minlash hamda yer talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31 dekabrda 490-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2002 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq 2002 yil 1 yanvardan jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga olinadigan soliq joriy etildi. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrda 343-sonli Qonuniga asosan 2013 yil 1

yanvardan boshlab jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga olinadigan soliq, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq deb atala boshlandi. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrda 454-sonli Qonuniga asosan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, 2018 yil 1 yanvardan boshlab benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq deb e'tirof etildi.

O'zbekistonda 1999 yilda qishloq xo'jalik korxonalariga soliq solishda tub o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktabrdagi «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi 2086-sonli Farmoniga muvofiq 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i joriy etildi. O'zbekistonda yagona yer solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari mehnatining pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish hamda qishloq xo'jalik korxonalariga soliq solish tizimini soddalashtirishdan iboratdir. Ushbu soliqning amaliyotga joriy etilishi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z tasarrufidagi yerlardan yanada oqilona foydalanishga da'vat etadi, chunki har bir gektar yer maydoni uchun undan daromad olish yoki daromad olmaslik holatidan qat'i nazar belgilangan miqdordagi soliq summasini to'lash lozim bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, soliq solishning ushbu tizimi xo'jaliklar hisobchilarining soliqlarni hisoblash va to'lash borasidagi ishlarini keskin kamaytirdi hamda ularga qulayliklar yaratdi.

Mahalliy soliqlarga yig'imlar mahalliy byudjetga o'tkaziladi. Soliqlarni umumdavlat va Mahalliy soliqlarga bo'linishi hukumat idoralarning respublika hukumati va Mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosidan kelib chiqadi. har bir hokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muxim vazifalaridan kelib chiqib, o'z byudjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga ega bo'lishi kerak. Umumdavlat soliqlarining muxim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan Mahalliy byudjetlarini boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushishi



mumkin. Agar kelgusi yili Mahalliy byudjetlarning o'z manbalari ko'payib qolsa, respublika soliqlaridan ajratma berishni xojati qolmaydi. Respublika va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo'lib, byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlardir.

Mahalliy soliqlar mahalliy hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib berilgan. Mahalliy hukumatlar asosan mexnatkashlarga yaqin bo'lganligidan ular ijtimoiy masalalarni maktab, sog'liqni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlarga yig'imlar ularni byudjet harajatlarini 30-40% ni qoplaydi, xolos. Keyingi vaqtlarda mahalliy byudjetlar daromadlari salmog'ini 50-60% ga yetkazish kabi hukumat qarorlari mavjud.


Mahalliy byudjetni shakllantirish jarayonida muayyan pul muomalasi paydo bo'ladiki, bunda soliqlar hamda soliqqa kirmaydigan to'lovlar, yig'imlar ana shunday muomalani yechimi shakli sifatida yuzaga keladi. Mahalliy byudjet daromadlari ma'lum darajada xo'jalik yuritish tizimlari va usullariga shuningdek jamiyatda xalq etilayotgan vazifalarga bog'liq bo'ladi. Iqtisodiyot bozor munosabatlariga o'tishi bilan mahalliy byudjetning daromad tushumlarini soliqlarga soliqqa kirmaydigan to'lovlar yordamida safarbar qilishga ehtiyoj tug'iladi, davlatning aholi bilan mahalliy byudjetni shakllantirish payitidagi o'zaro munosabatlari iqtisodiy qonunlar asosida izga solina boshlanadi.

Demak, O'zbekiston Respublikasining mahalliy byudjeti pul resurslarining markazlashgan fondlari bo'lib, ular asosan mahalliy soliqlar yordamida jamlanadi hamda mahalliy hokimiyat tomonidan o'z funksiya va vazifalarini amalga oshirish uchun foydalaniladi.

Mahalliy soliqlari iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning rivojlanishiga davlat tomonidan ta'sir o'tkazishning muxim vositasi bo'lib holarkan, jamiyat xayotiga Mahalliy soliqlarta'sirining shakl va usullarini ham o'zgartirmoqda. Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti Mahalliy byudjet mablag'larini to'g'ri yo'naltirishga bog'liqdir.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI MAHALLIY SOLIQLAR TURI.<sup>2</sup>

1-chizma



O'z navbatida Qoraqalpog'iston respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari bir necha manbalar hisobidan shakllantiriladi. Mahalliy byudjetlarning mazkur daromadlar manbalarini shartli ravishda 2 guruhga ajratish mumkin:

**I. mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari.** Mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari (o'zlarining daromadlari deganda qonunchilik bo'yicha to'liq mahalliy byudjetlarga birlashtirilgan daromad manbalari tushuniladi. Hozirgi kunda mahalliy byudjetlarning o'z daromadlariga quyidagilar kiradi:

1. mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar. Mahalliy soliqlar va yig'imlar - mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manbaini vujudga keltirish, tabiiy va boshqa moddiy resurslardan samarali foydalanish, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy organlarining faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida joriy etilgan. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i(2018 yildan bekor qilingan);

<sup>2</sup> O'zR Soliq Kodeksi. O'zR DSQ. Respublika Axborot-Maslahat markazi. -T.: 2008, 6-12 b.

- transport vositalariga benzin,dizel yoqilg'isi va gaz shlatganlik uchun olinadigan soliq;
- yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i;
- yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig'i, yagona yer solig'i;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi;
- ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'im mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar jumlasiga kiradi.

Quyida keltirilayotgan 1-jadval ma'lumotlari orqali 2013-2017 yillarda O'zbekiston respublikasi davlat byudjeti daromadlarida mahalliy soliqlarning salmog'ini ko'rishimiz mumkin.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat byudjeti daromadlarida mahalliy soliqlarning miqdori va salmog'i o'sish xarakteriga ega. Ushbu holatni so'nggi yillarda mazkur soliqlarni to'lovchilar sonini ortishi, soliqqa tortish ob'ektlarining kengayishi, hamda mulk solig'i, yer solig'i va transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazni iste'mol qilganlik uchun soliqlarning stavkalarini oshirilishi bilan izohlash mumkin.

### **2013-2017 yillarda O'zbekiston respublikasi davlat byudjeti daromadlarida mahalliy soliqlarning salmog'i<sup>3</sup>**

Ko'rsatkichlar	2013		2014		2015		2016		2017 (operativ)	
	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%
<b>Jami daromadlar (maqsadli jamg'armalarsiz)</b>	26223,2	100	31729,6	100	36493,3	100	41030,7	100	44469,6	100
Mahalliy soliqlar	2859,9	10,9	3582,1	11,3	4122,2	11,3	4879,2	11,9	5870,9	13,2
1.1. Mulk solig'i	1011,6	3,9	1273,8	4,0	1393,0	3,8	1659,3	4,0	1988,8	4,5
1.2. Yer solig'i	583,4	2,2	647,5	2,0	750,1	2,1	966,7	2,4	1102,5	2,5

<sup>3</sup> [www.mf.uz-Ozbekiston](http://www.mf.uz-Ozbekiston) Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari.

1.3.	Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazni iste'mol qilganlik uchun soliq	670,5	2,6	1085,1	3,4	1242,9	3,4	1531,3	3,7	1940,3	4,4
1.4.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	594,4	2,3	575,7	1,8	736,2	2,0	721,9	1,8	839,3	1,9

## II. mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi (balanslovchi) daromadlari.

O'zbekiston byudjet amaliyotida mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari(mahalliy soliqlar va yig'imlar) hudud(viloyat, tuman, shahar) byudjetidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan xarajatlarni qoplashga yetmasligi mumkin. Mazkur xarajatlarni moliyalashtirishda uzilish bo'lmasligini ta'minlash maqsadida mahalliy byudjetlarga daromadlarni to'ldirish uchun qo'shimcha ravishda tartibga soluvchi daromadlar taqdim etiladi. (Mahalliy byudjetlar daromadlarini tartibga solish mexanizmini qo'llanmaning keyingi paragrafida kengroq yoritamiz).

Mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi (balanslovchi) daromadlariga quyidagilar kiradi:

### 1. belgilangan normativ(miqdor)larga muvofiq umumdavlat

**soliqlari.** Ya'ni, aslida to'liq respublika byudjetiga tushishi lozim bo'lgan ba'zi umumdavlat soliqlaridan tegishli hudud(viloyat, tuman, shahar)ning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, mazkur mahalliy byudjetdan amalga oshirilishi rejalashtirilgan xarajatlar miqdori, hamda mahalliy byudjetning o'z daromadlari hajmidan kelib chiqqan holda ma'lum bir miqdori(normativi) mahalliy byudjetlarga qoldiriladi. Bugungi kunda yuridik shaxslardan olinadigan foyda

solig'i, yagona soliq to'lovi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq kabi umumdavlat soliqlaridan har yili mahalliy byudjetlarga ma'lum bir normativ(miqdorda)dagi daromadlar qoldirilmoqda.

Ta'kidlab o'tish lozimki, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq, O'zbekiston respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'i uchun aktsiz solig'i bir necha yillardan beri to'liq miqdorda viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarida qoldirilmoqda.

2. byudjetlararo transfertlar. O'zbekiston respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan subventsiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining navbatdagi tartibga soluvchi daromadlari hisoblanadi.

## **2.BOB. ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA MAHALLIY SOLIQLARNING AMAL QILISH JARAYONI VA ULARNING BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.**

### **2.1. ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA MAHALLIY SOLIQLARNI HISOBLASH VA BUDJETGA TO'LASHNING XUSUSIYATLARI.**

Mahalliy soliqlar O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Mahalliy soliqlar mintaqaning rivojlantirish manbaini vujudga keltirish tabiiy va boshqa moddiy resurslarni shakllantirish, davlat xokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyat ko'rsatishi uchun moliyaviy manba yaratish maqsadida joriy etilgan. Ushbu soliqlar mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda sezilarli ulushga ega. Lekin mahalliy byudjet davlat byudjet tizimining alohida bo'g'ini hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda tijorat asosida

ish yuritayotgan barcha xo'jalik sub'ektlari , jismoniy shaxslar tomonidan amaldagi mahalliy soliqlarni to'lanib kelmoqda.

Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol amaldagi qonunlar va me'yoriy hujjatlarga bog'liqdir. 2008 yil 1 yanvardan boshlab qaytadan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan Soliq kodeksi mahalliy soliqlarni tarkibi va soliqqa tortish mexanizmini ancha o'zgartirib yubordi. Jumladan, soliqlarning soni kamaytirildi. Shuningdek, soliqqa tortish mexanizmi soddalashganligi bilan bir qatorda mukammallashtirildi. Ma'lumki oldingi bobda ta'kidlaganimizdek O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq respublikamizda mahalliy soliqlarning quyidagi turlari amal qilmoqda.

- 1) mol-mulk solig'i;
- 2) yer solig'i;
- 3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i (2018 yildan foyda solig'i bilan unifikatsiya qilindi);
- 4) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- 5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im; 6) yagona yer solig'i va boshqalar.

Ushbu soliqlarning ahamiyatini o'rganish uchun ularning amal qilish mexanizmini elementlari orqali tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Soliq kodeksining XI bo'limi mol-mulk solig'iga bag'ishlanib, 47-bobi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig'i (265-271-moddalari), 48-bobi jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig'i (272-277-moddalari) keltirib o'tilgan.

***Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar quyidagilardir:***

O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining norezidentlari. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-

mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, shu shaxs soliq to'lovchidir.

***Quyidagilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar bo'lmaydi:***

– notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilardir;

– soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Soliq solish obyektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk ob'ektlari bo'yicha soliq solinadigan baza mazkur ob'ektlarga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan qiymat asosida quyidagicha aniqlanadi:

**Mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati =**  $31 \text{ yanvar} + 28(29)\text{fevral} + \dots + 30 \text{ noyabr} + 31 \text{ dekabr}$

---

***Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra quyidagi yuridik shaxslarning molmulkiga soliq solinmaydi:***

a) sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi, madaniyat va san'at tashkilotlari;

b) uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligining mol-mulkiga;

v) yangi tashkil etilgan korxonalar - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida;

g) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'yektlarini-yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

Yuridik shaxslar - davlat mulki ob'ektlarini sotib oluvchilar uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi davlat mulki ob'ektlariga to'g'ri keladigan soliq summasiga kamaytirilib, bo'shagan mablag'lar xususiylashtirilgan ob'ektlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ularni rivojlantirishga maqsadli tarzda yo'naltiriladi. Ushbu imtiyoz oldi-sotdi shartnomasi imzolangan paytdan e'tiboran 12 oy mobaynida qo'llaniladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining stavkalari 2002 yilda 2 foizni, 2003 yilda 3 foizni hamda 2004 yildan 2013 yilgacha 3,5 foizni tashkil etgan. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining stavkalari asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda 1449-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq 2011 yil 1 yanvardan boshlab eskirgan uskunalarning o'z vaqtida almashtirilishini ta'minlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun (mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) to'liq amortizatsiya qilingan va foydali ish muddati tugagan uskunalardan foydalanganlik uchun dastlabki qiymatning 0,25 foizi miqdorida to'lov joriy etildi.

***Yuridik shaxslar mol-mulk solig'ining stavkalari quyidagicha belgilangan:***

2-jadval

**Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i  
STAVKALARI<sup>4</sup>**

<i><b>№</b></i>	<i><b>To'lovchilar</b></i>	<i><b>Soliq stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</b></i>
-----------------	----------------------------	--

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda 3454-sonli qarori.



1	Yuridik shaxslar	5
---	------------------	---

*Izoh.* Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, uskunalar normativ muddatlarda o'rnatilmaganligi va qurilish ob'ektlari normativ muddatda tugallanmaganligi uchun mol-mulk solig'i ikki baravar stavkada to'lanadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasining yillar davomida o'zgarish dinamikasi keltirilgan.

3-jadval

**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarining o'zgarish dinamikasi<sup>5</sup>**

Soliq stavkalari (foizda)	2002	2003	2004	2005	y <sub>4</sub> 201	y <sub>5</sub> 201	y <sub>6</sub> 201	y <sub>7</sub> 201
Asosiy stavka	2	3	3,5		4	4	5	5

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq to'lovchi - O'zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

***Yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq quyidagicha hisoblanadi:***

$$MM_s = M_{o'q} \times S_s,$$

bu yerda:

$MM_s$  – yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq summasi;

$M_{o'q}$  – mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati;  $S_s$

– soliq stavkasi.

***Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi*** soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Agar ko'chmas mulk soliq to'lovchining soliq bo'yicha hisobga olish joyida joylashmagan bo'lsa,

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

hisobkitob ko'chmas mulk joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar to'laydilar.

Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 10 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, davlat soliq xizmati organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (tegishli yil uchun molmulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davrida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadilar.

Yil mobaynida yagona soliq to'lovini to'lashga o'tayotgan umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar - mikrofirmalar va kichik korxonalar umumbelgilangan soliqlar ular tomonidan to'langan davr uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tilayotgan oyning 10-sanasidan kechiktirmay taqdim etadi.

Joriy to'lovlar quyidagicha to'lanadi: mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining to'rtidan bir qismi miqdorida ***yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay;***

– mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida ***har oyning 10-kunidan kechiktirmay.***

**Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq.** Jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylari,

kvartiralar, chorbog‘ va bog‘ uylari, garajlar va boshqa imoratlari, binolar va inshootlari qiymati ***soliq solish ob’yekti*** hisoblanadi.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish ob’ektlarining kadastr qiymati to‘lovchilar uchun ***soliq solinadigan bazadir***. Agar jismoniy shaxslarning mol-mulki bahosi tegishli vakolatli idoralar tomonidan aniqlanmagan bo‘lsa, bunday holatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan mol-mulkning shartli qiymati belgilanadi hamda o‘rnatilgan stavkalar asosida soliqqa tortiladi. Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob’ekti bo‘yicha to‘lovchi bo‘lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir ob’ekt bo‘yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

***Soliq qonunchiligiga ko‘ra quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo‘lgan imoratlari, binolari va inshootlariga soliq solinmaydi:***

1) «O‘zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning. Mazkur imtiyoz tegishincha «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘limining yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) o‘n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning. Mazkur imtiyozni berish uchun fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma’lumotnomasi asos bo‘ladi. Imtiyoz qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o‘lchami doirasida beriladi;

4) qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o‘lchami doirasida pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

5) I va II guruh nogironlarining. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyoz qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida beriladi;

Yuqorida nazarda tutilgan imtiyozlar mol-mulk egasining tanlashiga binoan, imtiyoz olish huquqini beruvchi zaruriy hujjatlar soliq organlariga taqdim etilganda, mol-mulkning faqat bir ob'yektiga taalluqli bo'ladi.

Imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan soliq solish ob'ektlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

Yil davomida to'lovchilarda mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda ular ko'rsatilgan to'lovlardan ana shu huquq paydo bo'lgan oydan boshlab ozod etiladilar.

Yil o'rtasida mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz huquqini yo'qotganda soliq solish ushbu huquq yo'qolgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.

***Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga asosan quyidagicha belgilangan:***

Quyidagi jadval ma'lumotlarida jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarining yillar davomida o'sib borish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin

4-jadval

**Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i  
STAVKALARI<sup>6</sup>**

<i>N</i>	<i>Soliqqa tortish ob'ekti</i>	<i>Mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga</i>
1	Turar joylar, kvartiralar (bundan umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lganlari mustasno), dala hovli qurilmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va	<i>i b</i> <i>li</i> <i>k</i> <i>i (%d)*</i> 0,2

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda 3454-sonli qarori.

2	Shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joylar va kvartiralar:	
	200 kv.m dan oshiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	0,25
	500 kv.m dan oshiq bo'lgan	0,35
3	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.metr dan oshiq bo'lgan turar joylar	0,25

*\*) Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida mol-mulkning kadastr qiymati kadastr hujjatlaridan kelib chiqib belgilanadi, biroq 42 000 ming so'mdan kam bo'lmasligi kerak.*

***Izohlar:***

*1. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash organlari belgilagan kadastr qiymati bo'lmasa, soliq undirish uchun Toshkent va Nukus shaharlari, shuningdek viloyat markazlarida 210 000 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda - 90 000 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.*

*Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan turar joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqib undiriladi.*

*2. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash maqsadida soliq solinmaydigan maydon umumiy maydonning 60 kv.m hajmida belgilanadi.*

5-jadval

**Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq  
Stavkalarining o'zgarish dinamikasi<sup>7</sup>**

**Soliq stavkalari  
(foizda)**

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.
1. Turar joylar, kvartiralar, dala hovli va bog' uychalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar, ularning qiymatidan kelib chiqib:							
200 kv.m gacha bo'lgan	0,75	0,9	1,04	1,2	1,3	1,5	1,7
2. Shaharlarda joylashgan umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joy va kvartiralar:							
a) bo'lgan 200 kv.m dan oshiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	0,9	1,1	1,25	1,4	1,6	1,8	2,1
b) 500 kv.m dan oshiq bo'lgan	1,13	1,35	1,55	1,8	2,2	2,5	2,9
3. Boshqa aholi punktlarida joylashgan umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joylar va kvartiralar							
200 kv.m dan oshiq bo'lgan	0,9	1,1	1,25	1,4	1,6	1,8	2,1
4. TIB idoralari tomonidan baholanmagan va yangi qurilgan ob'ektlar uchun shartli baho:							
a) Toshkent shahri va viloyatlar markazi uchun	ming so'm 18480			ming so'm 20328			

b) boshqa shaharlar va qishloq joylari uchun ming so'm 8030 ming so'm 8833

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladi.

***Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq summasi quyidagicha aniqlanadi:***

$$MM_s = M_{iq} \times S_s,$$

bu yerda:

$MM_s$  – jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq summasi;

$M_{iq}$  – mol-mulkning (inventarizatsiya) qiymati;

$S_s$  – jismoniy shaxslar uchun belgilangan mol-mulk solig'i stavkasi.

Jismoniy shaxslar soliq solish ob'ektlaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalangan yoxud bu ob'ektlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan taqdirda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan yashash uchun mo'ljallanmagan joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi. Agar jismoniy shaxs yoki oilaviy korxonada turar joydan unda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar

ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, mol-mulk solig'i jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish ob'ekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan imtiyozlarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadilar.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra kadastr qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mulkiga solinadigan soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha jismoniy shaxslarning molmulkiga solinadigan soliq ular barpo etilgan yildan keyingi yil boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq merosxo'rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Soliq solish ob'ekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan, buzib tashlangan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran to'xtatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik, buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyoz huquqi vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi davlat soliq xizmati organi tomonidan soliq to'lovchilarga imzo qo'ydirilgan holda yoki to'lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili ***1 maydan kechiktirmay*** topshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq davri uchun to'lash ***hisobot yilining 15 oktyabriga*** qadar amalga oshiriladi.

### **Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i**

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari ***yer solig'ini to'lovchilaridir.***

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi yer solig'ini to'lovchi bo'ladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchidir.

#### ***Yer solig'i to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:***

1) madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari - o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalari uchun;

2) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;



3) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlari - yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

*6-jadval*

**Shaharlar va shaharchalarda yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'i STAVKALARI**

<b>Shahar, viloyat</b>	<b>Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, 1 ga uchun, so'mda</b>	<b>Yakka tartibda uy-joy qurishga beriladigan yerlar uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig'ining bazaviy stavkalari, 1 kv.m uchun, so'mda</b>
Denov	13 171 332	120,8
Termiz	13 254 709	125,1
<b>Boshqa kichik shaharlar</b>		
Surxondaryo viloyati	13 171 332	120,8
<b>Tuman markazlari <u>hisoblangan shaharchalar</u> va qishloq aholi punktlari</b>		
Surxondaryo viloyati	11 342 862	104,1

*7-jadval*

**Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i**

## STAVKALARI

<i>Respublika, viloyat</i>	<i>1 ga uchun yer solig'i stavkalari, so'mda:</i>					
	<i>Yuridik shaxslardan ajratilgan yerlar uchun, zonalar bo'yicha</i>			<i>Kon va karerlar band etgan yerlar uchun, zonalar bo'yicha</i>		
	<i>sug'oriladigan</i>			<i>lalmi-yaylov</i>	<i>sug'oriladigan</i>	<i>lalmi-yaylov</i>
	<i>aholi punktlarida</i>	<i>aholi punktlaridan tashqarida</i>	<i>lalmi-yaylov</i>			
Surxondaryo	8 642 159	7 811 221	432 153	3 273 990	166 224	
Sirdaryo	6 730 833	6 415 169	340 802	1 412 586	74 875	
Toshkent	7 894 208	7 229 433	398 881	2 501 359	124 569	
Farg'ona	7 229 433	6 764 092	365 683	1 877 933	91 290	
Xorazm	7 312 589	6 797 326	365 683	1 919 483	99 746	

*8-jadval*

### Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig'i STAVKALARI

<i>Respublika, viloyat</i>	<i>0,01 ga uchun yer solig'i stavkalari, so'mda:</i>			
	<i>dehqon xo'jaligini yuritishga berilgan yerlar uchun</i>			<i>jamoabog'dorchiligi va polizchiligini yuritishga beriladigan yerlar uchun</i>
	<i>sug'oriladigan zona</i>		<i>lalmi yerlar</i>	
	<i>aholi punktlarida</i>	<i>aholi punktlaridan tashqarida</i>		
Surxondaryo	7 108,3	3 555,5	998,9	3 882,6
Sirdaryo	5 829,8	2 915,7	431,3	1 667,2
Toshkent	6 577,2	3 289,1	759,0	2 962,5
Farg'ona	6 150,5	3 075,6	566,7	2 220,5
Xorazm	6 177,7	3 088,1	584,5	2 271,9

#### *Izohlar:*

1. 7 va 8-jadvallarda keltirilgan stavkalarga yer uchastkalarining joylashish joyiga bog'liq holda quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi: Toshkent shahri atrofida 20 km lik aylanada - 1,30, Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti va viloyat markazlari atrofida 15 km lik aylanada - 1,20, tuman markazlari atrofida 10 km lik aylanada - 1,15, boshqa shaharlar atrofida 5 km lik aylanada - 1,10.

*Yer uchastkalarigacha bo'lgan masofa avtomobil yo'llari bo'yicha uaharlar va tuman markazlarining ma'muriy chegaralaridan boshlab belgilanadi. Agar yer uchastkasi ikki shahar yaqinida joylashgan bo'lsa, shaharning yuqoriroq funktsional vazifasiga muvofiq keladigan koeffitsient qo'llaniladi.*

2. *Dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan yer solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida 8jadvalda keltirilgan stavkalariga, yer sifatiga bog'liq holda, quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi: tuproq boniteti 40 ballgacha bo'lsa - 0,75, 41 dan 70 ballgacha bo'lsa - 1,0 va 70 balldan ortiq bo'lsa - 1,25.*

*1 va 2-bandlarda ko'rsatilgan koeffitsientlarning qo'llanilishi yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish ishlarini amalga oshiruvchi tegishli davlat soliq xizmati organlari tomonidan taqdim etiladigan axborotga asosan amalga oshiriladi.*

3. *O'rmon xo'jaliklarida mollarni o'tlatish uchun foydalanilmaydigan yaylov yerlar uchun yer solig'i boshqa yerlar uchun stavkalar bo'yicha to'lanadi.*

4. *Shahar va posyolkalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan kon va karerlar band etgan yerlar uchun soliq 5 va 6-jadvallarda tegishli zonalar uchun keltirilgan stavkalariga 0,1 koeffitsientini qo'llagan holda to'lanadi.*

5. *Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan soliq yuridik shaxslar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi.*

6. *Jamoaviy va shaxsiy garajlar band etgan yer uchastkalari uchun jismoniy shaxslardan soliq yakka tartibdagi uy-joy quriladigan yerlar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi.*

7. *Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ini hisoblab chiqarishda 5 va 6-jadvallarda keltirilgan bazaviy stavkalar belgilangan normativlar doirasida yer uchastkalariga nisbatan qo'llanadi, belgilangan normativlardan ortiq yer uchastkalari uchun bazaviy stavkalariga esa oshiruvchi koeffitsient - 1,5 qo'llanadi.*

*Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ini hisoblab chiqarish maqsadida yer uchastkalarining quyidagi normativlari qo'llanadi:*

*Toshkent sh., Nukus sh. va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar - 0,06 ga;*

*boshqa aholi punktlari (dehqon xo'jaliklari bundan mustasno) - 0,1 ga.*

8. *Ko'p qavatli uylarda noturar joy bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i qavatlarining soniga bo'lingan noturar joy maydonidan kelib chiqib hisoblab chiqariladi.*

9. Tugallanmagan qurilish ob'ektlari egallagan yer uchastkalari uchun yer solig'i, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ikki baravar stavkada to'lanadi.

***Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan yer solig'i quyidagicha aniqlanadi:***

$$Y_s = Y_m \times S_s \times k,$$

bu yerda:

$Y_s$  – yer solig'i summasi;

$Y_m$  – yer maydoni;

$S_s$  – yer solig'i stavkasi;

$k$  – yer uchastkalarining joylashish joyiga bog'liqlik koeffitsienti (shahar joylarida ushbu koeffitsient 1 ga teng bo'ladi).

***Yuridik shaxslar tomonidan sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi uchun to'lanadigan yer solig'i quyidagicha aniqlanadi:***

$$Y_s = Y_m \times S_{bs} \times k,$$

bu yerda:

$Y_s$  – yer solig'i summasi;

$Y_m$  – yer maydoni;

$S_{bs}$  – yer solig'ining bazaviy stavkasi;  $k$  – yer solig'ining bazaviy stavkasi tuzatish koeffitsienti.

Yer solig'i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra ***hisoblab chiqariladi*** va yer solig'ining ***hisob-kitobi*** yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 10 yanvariga qadar taqdim etiladi.

Yer solig'ini hisoblab chiqarish hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazada (hisoblangan soliq summasida) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi.

Yil mobaynida yagona soliq to'lovini to'lashga o'tayotgan umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar - mikrofirmalar va kichik korxonalar umumbelgilangan soliqlar ular tomonidan to'langan davr uchun yer solig'ining aniqlashtirilgan hisobkitobini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tilayotgan oyning 10-sanasidan kechiktirmay taqdim etadi.

Yer solig'ini to'lash yuridik shaxslar tomonidan **har oyning 10-kuniga** qadar yer solig'i yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida amalga oshiriladi.

Soliq davri mobaynida yer solig'i to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

**Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq, xo'jaligi korxonalari** yer solig'ini hisobot yilining 1 sentabriga qadar - yillik soliq summasining 30 foizini va hisobot yilining 1 dekabriga qadar - hisoblangan soliqning qolgan summasini to'lashni amalga oshiradi.

Yer solig'i, soliq to'lovchining joylashgan yeridan qat'i nazar, hududida yer uchastkasi joylashgan tuman yoki shaharning mahalliy budjetiga to'lanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra o'z mulkida, egaligida, foydalanishida yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari **yer solig'ining to'lovchilari** bo'lib hisoblanishadi.

**Jismoniy shaxslarning quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan ob'yekt hisoblanadi:**

- dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

- jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari;
- xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek yerlar;
- meros bo‘yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy, dala hovli bilan birgalikda egalik qilish huquqi ham o‘tgan yer uchastkalari;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
- tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob‘ekti bo‘lmaydi.

Soliq kodeksiga ko‘ra ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organning yer uchastkalari maydoniga doir ma’lumotnomalari *soliq solinadigan baza* bo‘lib hisoblanadi.

***Soliq kodeksiga ko‘ra quyidagi jismoniy shaxslar yer solig‘idan ozod qilinadilar:***

1) «O‘zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘limining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘limining yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironlari. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiymehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

4) yolg‘iz pensionerlar. Yolg‘iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan alohida uyda birga yashovchi pensionerlar yolg‘iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining malumotnomasi, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

5) boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o‘n olti yoshga to‘lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo‘lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

6) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolar). Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo‘ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

Yuqorida ko‘rsatilgan imtiyozlar yer uchastkalari yakka tartibda uy-joy qurilishi va shaxsiy yordamchi xo‘jalik (dehqon xo‘jaligi) yuritish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan me‘yorlar doirasida taqdim etilgan jismoniy shaxslargagina tatbiq etiladi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

***Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘ining stavkalari yuqoridagi jadvallarda aks ettirilgan.***

Jismoniy shaxslar foydalanadigan (shu jumladan, yer solig‘ini to‘lashdan ozod etilgan), davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha yer uchastkalari uchun yer solig‘i jismoniy shaxslar uchun 1,5 koeffitsientini qo‘llagan holda to‘lanadi. Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha foydalaniladigan yerlar uchun yuqorida ko‘rsatilgan

koefitsientni qoʻllagan holda yer soligʻi toʻlanmagan taqdirda soliq toʻlovchilarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy jazo choralari qoʻllanadi.

Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan soliq korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun tasdiqlangan stavkalar boʻyicha undiriladi. Jismoniy shaxslar uchun yer soligʻini hisoblab chiqarish doʻkonlar, oshxonalar, ustaxonalar va tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan boshqa obʻyektlar uchun foydalaniladigan yer uchastkalari uchun amalga oshiriladi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga boʻlgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda koʻrsatilganidan kattaroq hajmda foydalanish yer soligʻining summasiga ekvivalent miqdorda bir yarim baravar miqdorda jarima solishga asos boʻladi.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar, joylar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida boʻlgan, yashash uchun moʻljallanmagan joylar egallagan yer uchastkalari uchun jismoniy shaxslardan yer soligʻi yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻini toʻlash uchun belgilangan stavkalar boʻyicha undiriladi hamda koʻrsatilgan imtiyozlar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi. Agar jismoniy shaxs yoki oilaviy korxonada yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar koʻrsatish) uchun foydalangan taqdirda, yer soligʻi jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavka boʻyicha toʻlanadi.

Yakka tartibda uy-joy qurish va uylarni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismiga qishloq xoʻjaligi ekinlarini ekish yoki uni obodonlashtirish amalga oshirilmagan taqdirda yer soligʻi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uch baravar miqdorda toʻlanadi.

### **3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻini hisoblab chiqarish va toʻlash tartibi.**

Jismoniy shaxslar uchun yer soligʻini davlat soliq organlarining xodimlari hisoblab chiqaradi. Davlat soliq xizmati organlari yer uchastkalari mulkdorlari, yer



egalari yoki yerdan foydalanuvchilar yoki ijarachilar bo'lgan jismoniy shaxslarning muntazam hisobini yuritadilar.

***Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan yer solig'i quyidagicha hisoblanadi:***

$$Y_s = Y_m \times S_s \times k_1 \times k_2,$$

bu yerda:

$Y_s$  – yer solig'i summasi;

$Y_m$  – yer maydoni (shahar joylarda  $m^2$ , qishloqlarda sotix);  $S_s$  – yer solig'i stavkasi;  $k_1$  – yer uchastkalarining joylashish joyiga bog'liqlik koeffitsienti;  $k_2$  – yer uchastkalarining yer sifatiga bog'liqlik koeffitsienti.

Kalendar yil soliq davridir.

Yer solig'ini hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslarga imzo qo'ydirilgan holda yoki to'lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili ***1 maydan kechiktirmay*** topshiriladi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgaranda va imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelganida (bekor qilinganda) davlat soliq xizmati organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida yer solig'ini qayta hisob-kitob qilishlari hamda soliq to'lovchiga yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari kerak.

Yer solig'i yer uchastkasining mulkdori, yerga egalik qiluvchi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining yashash joyidan qat'i nazar, yer uchastkasi joylashgan hududdagi tuman yoki shaharning mahalliy budjetiga to'lanadi.

Yil mobaynida ajratilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkasi ajratilganidan keyingi oydan e'tiboran to'lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, yer solig'ini to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyoz huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqlar bekor qilingan taqdirda, bu soliq mazkur huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran to'lana boshlaydi.

Belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i yer uchastkasidan foydalanish faktidan qat'i nazar, jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Soliq davri uchun yer solig'i to'lash jismoniy shaxslar tomonidan hisobot yilining **15 oktyabriga qadar** amalga oshiriladi.

### **Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.**

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan ***soliqni to'lovchilar*** oxirgi iste'molchilarga:

benzin, dizel yoqilg'isini, shu jumladan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali; gazni avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslardir.

Oxirgi iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi.

Avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari deganda avtomobillarga kompressor vositasida gaz to'ldirish, avtomobillarga yoqilg'i quyish va avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari tushuniladi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish ***soliq solish ob'ektidir***, bundan ixtisoslashtirilgan gaz quyish shoxobchalari orqali aholiga maishiy ehtiyojlar uchun realizatsiya qilinadigan suyultirilgan gaz mustasno.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gazning natura holidagi realizatsiya qilingan va o'z ehtiyojlari uchun foydalanilgan hajmi ***soliq solinadigan bazadir***.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda ***quyidagicha aniqlanadi***:

$$I_s = V \times S_s,$$

bu yerda:

$I_s$  – istemol solig‘i summasi;

$V$  – sotilayotgan benzin, dizel yoqilg‘isi yoki gazning natural ifodadagi hajmi;

$S_s$  – benzin, dizel yoqilg‘isi yoki gaz uchun belgilangan soliq stavkasi.

Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan quyidagicha belgilangan:

9-jadval

**Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning chegaralangan STAVKALARI<sup>8</sup>**

N	Soliqlar va yig‘imlarning turlari	Chegaralangan stavkalar			
		Toshkent sh.	Nukus sh., shaharlar - viloyat markazlari	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im(1), (2):				
	alkogolli mahsulotlar, shu jumladan, umumiy ovqatlanish korxonalaridan tomonidan alkogolli mahsulotlarning realizatsiya qilinishi	6,0	5,0	4,0	3,0
	qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar	4,0	3,5	3,0	2,0
2	Quyidagilarning iste‘moli uchun undiriladigan soliq(3):				
	benzin	1 litr uchun 232,5 so‘m / 1 tonna uchun 308 850 so‘m(4)			
	dizel yoqilg‘isi	1 litr uchun 232,5 so‘m / 1 tonna uchun 282 500 so‘m(4)			
	suyultirilgan gaz	1 litr uchun 230 so‘m / 1 tonna uchun 436 300 so‘m(4)			
	siqilgan gaz	1 kub metr uchun 305 so‘m			

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda 3454-sonli qarori.

3	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash bo'yicha pulli xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im(1), (5)	8,0
---	--	-----

**Izohlar:**

1) Yig'implar stavkalari oyiga yil boshida - 2018 yil 1 yanvarda belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan (172 240 so'm) kelib chiqib belgilangan eng kam ish haqiga nisbatan karrali miqdorlarda belgilangan va eng kam ish haqi miqdori yil davomida o'zgaranda qayta ko'rib chiqilmaydi.

Quyidagi jadvaldan yillar mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasini o'zgarmaganligini, iste'mol uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq stavkalarining ortib borishini, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im stavkalrining ham o'zgarmaganligini ko'rish mumkin.

10-jadval

**Mahalliy soliqlar va yig'implarning o'zgarish dinamikasi<sup>9</sup>**

Soliq stavkalari (foizda)	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	y.1 201	y.2 201	y.3 201	y.4 201	y.5 201	y.6 201	y.7 201
1.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	8*	8*	8													
2. Iste'mol uchun undiriladigan soliq:																
– transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi (1 litr uchun)	so'm 20	so'm 20	so'm 20	so'm 50	so'm 60	so'm 80	so'm 100	so'm 120	so'm 145	so'm 157	so'm 200	so'm 240	so'm 265	so'm 290	so'm 335	so'm 465
– transport vositalari uchun suyultirilgan gaz (1 litr uchun)	so'm 17	so'm 20	so'm 20	so'm 50	so'm 60	so'm 80	so'm 100	so'm 120	so'm 145	so'm 140	so'm 65	so'm 65	so'm 180	so'm 200	so'm 230	so'm 230

– transport vositalari uchun siqilgan gaz (1 kub metr uchun)		so‘m 571	so‘m 200	so‘m 200	so‘m 220	so‘m 240	so‘m 275	so‘m 275
3. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im:								
– alkogolli mahsulotlar	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 5 baravari							
– qimmatbah o metallar va qimmatbah o toshlardan yasalgan buyumlar	-	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 3,5 baravari						
4. Avtotransportni saqlash bo‘yicha pulli xizmatlarni	-	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 8 baravari						

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to‘g‘risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

\* O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31 dekabrda 490-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2002 yilgi asosiy makoiqtisodiy ko‘rsatkichlari pragnozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan 2002-2003 yillarda infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘lgan

Soliq stavkalari (foizda)	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.
ko‘rsatganlik uchun yig‘im																

Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi uchun realizatsiya qilinadigan benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning narxida hisobga olinadi. Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazdan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanilganda benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisoblangan summasi soliq to‘lovchining xarajatlariga kiritiladi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisobkitobi joriy o'n kunlik to'lovlar hisobga olingan holda *har chorakda, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan* kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Hisob-kitob benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi, bundan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilish hollari mustasno. Avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda hisob-kitob avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lash uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilingan *oyning o'n kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kundan* kechiktirmay, hisob-kitob taqdim etiladigan yerda har o'n kunda amalga oshiriladi.

### **Yagona yer solig'ining joriy etilishi**

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari *yagona yer solig'ining to'lovchilari* bo'lib hisoblanishadi.

O'rmon va ovchilik xo'jaliklari hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yagona yer solig'ini to'lovchilar hisoblanmaydi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlari ishlab chiqargan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha mazkur faoliyat turidan yagona yer solig'ini to'laydilar va ular boshqa soliq solish tizimini tanlash huquqiga ega emaslar.

Agar yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlari ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab

chiqarish va qayta ishlash bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob yuritishlari va boshqa faoliyat turlari bo'yicha shu toifadagi to'lovchilar uchun amaldagi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan soliqlarni to'lashga majburdirlar. Bunda, agar qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirsam, faoliyatning boshqa turlari bo'yicha (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari bundan mustasno) ular faoliyatning mazkur turi uchun nazarda tutilgan yagona soliq to'lovi yoki umumbelgilangan tartibda soliqlar to'laydilar.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yerlar ijaraga berilganda ijaraga beruvchida ijaraga berilgan yerlar bo'yicha yagona yer solig'ini to'lash majburiyati saqlanib qoladi.

Yagona yer solig'ini to'lashdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq to'lovchi umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq davrining birinchi choragi uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi.

Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi maydoni **yagona yer solig'i solish ob'yekti** hisoblanadi.

Soliq solinadigan yer uchastkalarining normativ qiymati **soliq solinadigan baza** hisoblanadi. Soliq solinadigan qishloq xo'jaligi yer maydonlari, yer uchastkalarining joylashishi, tuproq boniteti va yer mulkining boshqa tavsiflari yer kadastr ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinadi.

***Yagona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:***

– ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'yektlari - yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran;

– yuridik shaxslar, yer uchastkasining qaysi qismida tomchilatib sug'orishdan foydalanilayotgan bo'lsa, o'sha qismida tomchilatib sug'orish tizimi joriy qilingan oydan boshlab besh yil muddatga.

***Soliq qonunchiligiga ko'ra soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi:***

a) qishloq aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari;

b) ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

v) sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suv havzalari, sportning texnik turlari ob'yektlari va boshqa jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish komplekslari onalar va bolalarning dam olish va sog'lomlashtirish joylari, sanatoriy-kurort muassasalari va dam olish uylari, o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

g) yangi o'zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holatini yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug'oriladigan yerlar-loyihada nazarda tutilgan muddatga, lekin ishlar boshlanganidan e'tiboran ko'pi bilan besh yilga. Agar loyihada yerlarni o'zlashtirish va meliorativ ishlarni amalga oshirish muddatlari ko'rsatilmagan yoki yer uchastkasi boshqa muddatlarda topshirilgan bo'lsa, yer uchastkasi uchun soliq meliorativ ishlar va yangi yerlarni o'zlashtirish ishlari bajarilgan yillar uchun to'lanmaydi, lekin u 5 yildan oshmasligi kerak;

d) ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash ob'yektlari band etgan yerlar;

e) yangi tut ko'chatlari ekilgan yerlar, qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Shu munosabat bilan bahorda ekilgan tut ko'chatlari ekilgan yilni hisoblaganda uch yilga soliq to'lashdan ozod etiladi, kuzda ekilgan ko'chatlar esa ularni ekishdan keyingi yildan boshlab uch yilga soliq to'lashdan ozod etiladi;

j) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quvtajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari;

z) yangi barpo etilgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, shu jumladan fermer xo'jaliklari, davlat ro'yxatiga olingan paytdan boshlab ikki yil muddatga;

k) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq soliq solinmaydigan boshqa yerlar.



Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga soliqdan imtiyoz belgilanganda ular soliqni ushbu huquq paydo bo'lgan oydan boshlab to'lashni to'xtatadilar. Soliq imtiyozlari bekor qilingan taqdirda ular yer solig'ini ushbu huquq bekor qilingan oydan keyingi oydan boshlab to'lashni boshlaydilar.

11-jadval

### YAGONA YER SOLIG'I STAVKALARI<sup>9</sup>

To'lovchilar	Normativ qiymatga nisbatan stavka, %da
Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari	0,95

**Izoh:**

Har bir xo'jalik bo'yicha qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymati O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasining «O'zdaverloyiha» O'zbekiston davlat ilmiy-loyiha instituti tomonidan belgilanadi.

Quyidagi jadvalda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari to'laydigan yagona yer solig'i stavkasining yillar davomida o'sib borish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin.

12-jadval

### Yagona yer solig'i stavkasining o'zrarish dinamikasi<sup>10</sup>

Soliq stavkalari normativ qiymatga nisbatan (foizda)	y. 2008	y. 2009	y. 2010	y. 2011	y. 2012	y. 2013	y. 2014	y. 2015	y. 2016	y. 2017
Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari	2,8	3,5	5	6	6	6	6	6	0,95	0,95

**Yerlarning har bir turi bo'yicha yagona yer solig'i summasi quyidagi ifoda bo'yicha belgilanadi:**

$$Y_a Y_s = Y_{nq} \times S_s,$$

bu yerda:

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda 3454-sonli qarori.

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

$Y_a Y_s$  – yagona yer solig‘i summasi;  $Y_{nq}$  – yer uchastkasining normativ qiymati;  $S_s$  – yagona yer solig‘i stavkasi.

Soliq to‘lovchilar yagona yer solig‘i summasini belgilangan shakl bo‘yicha soliq solinadigan bazaga qarab yer uchastkalarining normativ qiymati hamda yer uchastkalarining maydonidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqadilar.

***Yagona yer solig‘ining hisob-kitobi*** yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig‘i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to‘lanadi. Yer uchastkasi olib qo‘yilgan taqdirda, yagona yer solig‘ini to‘lash yer uchastkasi olib qo‘yilgan oydan boshlab to‘xtatiladi.

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o‘zgargan, shuningdek yagona yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlarga bo‘lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to‘lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 dekabrigacha yagona yer solig‘ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari lozim bo‘ladi.

***Yagona yer solig‘ini budjetga to‘lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:***

- hisobot yilining 1 sentabrigacha - yillik soliq summasining 30 foizi; - hisobot yilining 1 dekabrigacha - soliqning qolgan summasi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari buxgalteriya hisobida yagona yer solig‘i bo‘yicha budjet bilan hisob-kitobni budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag‘ida yuritadilar.

## **2.2. MAHALLIY SOLIQLARNING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI.**

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar kundan kunga chuqurlashib bormoqda. Bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini erkinlantirishuvida namoyon bo‘lmoqda. Davlat bilan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, yani yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi munosabat endilikda faqat

soliq orqali amalga oshiriladigan holatga aylanmoqda. Bu esa ushbu jarayonni chuqur o'rganishni, tahlil qilishni taqozo etadi. Mahalliy budjetlarning iqtisodiy tomondan mustaqqil faoliyat olib borishlari ularning o'z daromadlar manbaining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Mahalliy budjetlar o'z hududida turli yo'nalishdagi vazifalarini hal qilish uchun yetarli bo'lgan moliyaviy mablag'ga ega bo'lishlari kerak. Respublikamizda yer solig'i va mulk solig'i mahalliy soliqlar turkumiga 1998 yildan boshlab kiritildi. Bu esa mahalliy budjetlar daromad bazasini anchagina mustahqamlanishiga olib keldi, mahalliy soliqlar salmog'i 1998 yilda 10,7 foizdan 2000 yilda 18,1 foizga etdi.

Mahalliy budjetlar daromadlarining yana bir muhim manbasi bu jismoniy shaxslar daromad solig'ining mahalliy budjetlarga uzoq muddatga biriktirilib qo'yilishidir. Mahalliy soliqlarning asosiy parametrlari (stavkalari, bazasi, yengilliklari) Prezident tomonidan belgilangani holda ularni yig'ish hududlarda amalga oshiriladi. Shuning uchun ba'zi soliqlarni yig'ish juda muammoga aylanmoqda, chunki bazasini aniqlash juda qiyin yoki ularni yig'ish bilan bog'liq xarajatlar shu soliqlarning summalaridan oshib ketmoqda. Ushbu yo'nalishda mahalliy hokimiyat organlarining o'z soliq potentsiallarini (salohiyatini) oshirish va soliq to'lovchilar sonini kichik korxonalarni ko'paytirish hisobiga oshirish, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning sonini oshirish va ular daromadlarini nazorat qilish mexanizmining samaradorligini ko'tarish hisobiga budjet manfaatdorligini oshirish muhim yo'nalish hisoblanadi.

Respublikamiz soliq tizimidagi mavjud mahalliy soliqlarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarning ayrimlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- mahalliy soliqlar mahalliy davlat hokimiyati idoralari tasarrufida bo'lgan hududlar ehtiyojlari uchun ishlatiladi;
- ularning asosiy qismi mahalliy davlat hokimiyati idoralarining bevosita o'zlari tomonidan joriy etiladi, ularni huquqiy jihatdan tartibga solishda mahalliy davlat hokimiyati idoralariga bir qadar vakolatlar berilgan bo'lsada, respublika qonunchiligi bilan ham hisoblashishni talab etadi va boshqalar.

Shuningdek, mahalliy soliqlarning muhim xususiyatlaridan biri, ularni belgilash usuliga ko'ra ikki guruhga, ya'ni respublika qonunchiligi bilan joriy etiladigan va mahalliy davlat hokimiyati idoralari qonunchiligi bilan joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig'implarga bo'linishidir.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetinig asosiy parametrlarining 2017 yilgi ijrosini tahlil qiladigan bo'lsak 2017 yilda solikli daromadlari 49 684,8 mlrd. so'm bo'lib, to'g'ri soliqlardan tushumlar 11 538,9 mlrd.so'm (umumiy daromaddagi ulushi 23,2 foiz), jumladan foyda solig'i bo'yicha 1 475,5 mlrd.so'm (3,0 foiz), savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yagona soliq to'lovi bo'yicha 1 707,6 mlrd.so'm (3,4 foiz), kichik korxon va mikrofirmalarning yagona soliq to'lovi bo'yicha 1 750,8 mlrd.so'm (3,5 foiz), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 4 876,7 mlrd.so'm (9,8 foiz), qat'iy belgilangan soliq bo'yicha 1 042,9 mlrd.so'm miqdorida mablag'lar kelib tushgan.

Bilvosita soliqlar bo'yicha tushumlar 26 133,6 mlrd.so'mni yoki Davlat byudjeti daromadlarining 52,6 foizini tashkil etadi. Jumladan, byudjetga qo'shilgan qiymat solig'idan 14 686,2 mlrd.so'm (umumiy daromadlardagi ulushi 29,6 foiz), aksiz solig'idan 7 449,2 mlrd.so'm (15,0 foiz), abonent raqamlaridan foydalanganligi uchun to'lovlardan 506,4 mlrd.so'm (1,0 foiz), bojxona bojlaridan 1 707,4 mlrd.so'm (3,4 foiz), transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun iste'mol solig'idan 1 784,5 mlrd.so'm (3,6 foiz) soliqlar kelib tushgan.

Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'idan 6 867,4 mlrd.so'mni yoki umumiy davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi 13,8 foizni tashkil etdi.

2017 yil soliq tadbirlari natijasida mol-mulk solig'idan 2 129,7 mlrd.so'm (umumiy daromadagi ulushi 4,3 foiz) tushum qilindi. 2017 yilda yer solig'i bo'yicha 1 091,8 mlrd.so'm (2,2 foiz) tushdi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumi 3 474,1 mlrd.so'm miqdorida (7,0 foiz) mabag'lar kelib tushgan. Shuningdek, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan 171,8 mlrd.so'm tushdi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**DAVLAT BYUDJETINING ASOSIY PARAMYETRLARI IJROSI<sup>11</sup>**  
**2017 yil ijrosi**

**13-jadval**

Ko'rsatkichlar		mlrd.so'm	foizda
<b>I. Daromadlar (Maqsadli Jamg'armalarsiz) - Jami</b>		<b>49 684,8</b>	<b>100</b>
<b>1. Bevosita soliqlar</b>		<b>11 538,9</b>	23,2
1.1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	1 475,5	3,0
1.2	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	1 707,6	3,4
1.3	Yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalardan ajratmalar	1 750,8	3,5
1.4	Jismoniy shaxslar daromadiga soliq	4 876,7	9,8
1.5	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq	1 042,9	2,1
1.6	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	685,5	1,4
<b>2. Bilvosita soliqlar</b>		<b>26 133,6</b>	52,6
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	14 686,2	29,6
2.2	Aksiz solig'i	7 449,2	15,0
2.3	Bojxona boji	1 707,4	3,4
2.4	Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazni iste'mol qilganlik uchun soliq	1 784,5	3,6
2.5	Abonent raqamlaridan foydalanganlik uchun to'lov	506,4	1,0
<b>3. Resurs to'lovlari va mulk solig'i</b>		<b>6 867,4</b>	13,8
3.1	Mulk solig'i	2 129,7	4,3
	<i>yuridik shaxslar mulk solig'i</i>	<i>1 554,2</i>	<i>3,1</i>
	<i>jismoniy shaxslar mulk solig'i</i>	<i>575,6</i>	<i>1,2</i>
3.2	Yer solig'i	1 091,8	2,2
	<i>yuridik shaxslar yer solig'i</i>	<i>561,9</i>	<i>1,1</i>
	<i>jismoniy shaxslar yer solig'i</i>	<i>529,9</i>	<i>1,1</i>
3.3	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	3 474,1	7,0
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	171,8	0,3
<b>4. Yuqori daromaddan olinadigan soliq</b>		<b>1 415,1</b>	2,8

<sup>11</sup> Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari.

<b>5. Boshqa daromadlar</b>	<b>3 729,6</b>	7,5
-----------------------------	----------------	-----

2018 yilda Davlat byudjeti daromadlari 62,2 trln.so'mni yoki YaIMga nisbatan 21,4 foizni tashkil etadi. Davlat byudjetiga tushumlar YaIM nominal o'sishiga mos ravishda 25,9 foizga ortadi.

To'g'ri soliqlardan tushumlar 13,0 trln.so'm (umumiy daromaddagi ulushi 20,6 foiz), jumladan foyda solig'i bo'yicha 2,6 trln.so'm (4,0 foiz), savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yagona soliq to'lovi bo'yicha 1,9 trln.so'm (3,1 foiz), kichik korxonalar va mikrofirmalarning yagona soliq to'lovi bo'yicha 2,1 trln.so'm (3,4 foiz), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 5,2 trln.so'm (8,4 foiz), qat'iy belgilangan soliq bo'yicha 1,1 trln.so'm miqdorida tushishi kutilmoqda.

Bevosita soliqlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilishda foyda solig'i bilan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqlarining birlashishi hisobga olindi.

Bilvosita soliqlar bo'yicha tushumlar 33,1 trln.so'mni yoki Davlat byudjeti daromadlarining 53,7 foizini tashkil etadi. Jumladan, byudjetga qo'shilgan qiymat solig'idan 22,1 trln.so'm (umumiy daromadlardagi ulushi 35,4 foiz), aktsiz solig'idan 8,3 trln.so'm (13,4 foiz), abonent raqamlaridan foydalanganligi uchun to'lovlardan 0,3 trln.so'm (0,5 foiz), bojxona bojlaridan 1,4 trln.so'm (2,3 foiz), transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun iste'mol solig'idan 1,3 trln.so'm (2,1 foiz) tushishi kutilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, valyuta bozorini liberallashtirish oqibatlarini yumshatish maqsadida 2018 yildan boshlab neft maxsulotlari uchun aktsiz solig'i (0,7 trln.so'm) "O'zbekneftgaz" AJ tasarrufida qoldiriladi, abonent raqamlaridan foydalanganlik uchun to'lovlar bo'yicha Davlat byudjetiga ajratmalar miqdori esa 85 foizdan 29 foizga (0,3 trln.so'mga) qisqartirilgan, benzin va dizel yoqilg'isi uchun iste'mol solig'i stavkalari esa 2 baravarga kamaygan. Shuningdek, bilvosita soliqlarni prognoz qilishda valyuta bozorining 10 liberallashuvi samaralari hamda

alohida import mahsulotlar bo'yicha bojxona to'lovlari stavkalarining pasaytirilishi hisobga olingan.

Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i prognozi 9,7 trln.so'mni yoki umumiy davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi 15,6 foizni tashkil etadi.

2018 yil soliq kontseptsiyasidagi taklif qilinayotgan tadbirlar natijasida molmulk solig'idan 2,2 trln.so'm (umumiy daromaddagi ulushi 3,5 foiz) tushishi prognoz qilinmoqda. 2018 yilda yer solig'i bo'yicha 1,4 trln.so'm (2,0 foiz) tushishi prognoz qilinib, bunda yagona soliq to'lovchilar uchun yer solig'ining kiritilishi, shuningdek ushbu soliq turining indeksatsiyasi hisobga olingan.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumi 6,2 trln.so'm miqdorida (10,0 foiz) prognoz qilinmoqda. Shuningdek, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan 0,1 trln.so'm tushishi prognoz qilinib, ushbu soliq turini prognoz qilishda elektr stantsiyalar bo'yicha suv solig'ini hisoblash tartibi o'zgarganligi hisobga olingan.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINING 2018 YILGI  
ASOSIY PARAMYETRLARI PROGNOZI<sup>12</sup>**

**14-jadval**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>млрд. сум</b>	<b>%</b>
<b>I</b>	<b>Daromadlar (Maqsadli Jamg'armalarsiz) - Jami</b>	<b>62 229,5</b>	<b>100,0</b>
<b>1.</b>	<b>Bevosita soliqlar</b>	<b>12 805,4</b>	<b>20,6</b>
1.1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	2 510,9	<b>4,0</b>
1.2	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	1 907,6	<b>3,1</b>
1.3	Yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalardan ajratmalar	2 110,5	<b>3,4</b>
1.4	Jismoniy shaxslar daromadiga soliq	5 198,8	<b>8,4</b>
1.5	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq	1 077,6	<b>1,7</b>
<b>2.</b>	<b>Bilvosita soliqlar</b>	<b>33 404,3</b>	<b>53,7</b>
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	22 019,4	<b>35,4</b>
2.2	Aktsiz solig'i	8 343,8	<b>13,4</b>

<sup>12</sup> Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari.

2.3	Bojxona boji	1 415,3	<b>2,3</b>
2.4	Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazni iste'mol qilganlik uchun soliq	1 323,2	<b>2,1</b>
2.5	Abonent raqamlaridan foydalanganlik uchun to'lov	302,5	<b>0,5</b>
<b>3.</b>	<b>Resurs to'lovlari va mulk solig'i</b>	<b>9 714,5</b>	<b>15,6</b>
3.1	Mulk solig'i	2 158,9	<b>3,5</b>
3.2	Yer solig'i	1 266,6	<b>2,0</b>
3.3	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	6 203,1	<b>10,0</b>
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	85,9	<b>0,1</b>
<b>4.</b>	<b>Yuqori daromaddan olinadigan soliq</b>	<b>1 367,7</b>	<b>2,2</b>
<b>5.</b>	<b>Boshqa daromadlar</b>	<b>4 937,6</b>	<b>7,9</b>

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**DAVLAT BYUDJETINING ASOSIY PARAMYETRLARI IJROSI**  
**2018 yil I – chorak ijrosi**

**15-jadval**

<b>Ko'rsatkichlar</b>		<b>mlrd.so'm</b>	<b>foizda</b>
<b>I. DAROMADLAR (MAQSADLI JAMG'ARMALARSIZ) - JAMI</b>		<b>14 163,2</b>	100,0
	Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazni iste'mol qilganlik uchun soliq	<b>340,1</b>	2,4
	Mulk solig'i	<b>619,7</b>	4,4
	<i>yuridik shaxslar mulk solig'i</i>	<i>484,4</i>	<i>3,4</i>
	<i>jismoniy shaxslar mulk solig'i</i>	<i>135,3</i>	<i>1,0</i>
	Yer solig'i	<b>263,3</b>	1,9
	<i>yuridik shaxslar yer solig'i</i>	<i>151,9</i>	<i>1,1</i>
	<i>jismoniy shaxslar yer solig'i</i>	<i>111,3</i>	<i>0,8</i>

2018 yil uchun Surxondaryo viloyati bo'yicha byudjet daromadlarining reja ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak **1 052 140 213,0 ming som rejalashtirilgan bo'lib, mahalliy soliqlardan mol-mulk solig'i bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan 38 100 000,0 ming so'm (jami**



daromadlardagi ulushi 3,6 %), jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlardan 36 499 876,0 ming so'm (jami daromadlardagi ulushi 3,5 %), **mahalliy soliqlardan yer solig'i bo'yicha** yuridik shaxslar yer solig'idan 10 800 000, 0 ming so'm (jami daromadlardagi ulushi 1,0 %), jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'idan 53 600 001,0 ming so'm (jami daromadlardagi ulushi 5,1 %), yagona yer solig'idan 18 700 000,0 ming so'm (jami daromadlardagi ulushi 1,8 %), benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganlik uchun soliqlardan 85 000 000,0 ming so'm (jami daromadlardagi ulushi 8,1 %) mablaglar kelib tushishi rejalastirilgan bo'lib, bu jami mahalliy byudjet daromdlarining 23,1 % ni tashkil etadi. Qolgan daromadlar umumdavlat solig'idan ajratmalar hisoblanadi.

**2018 YIL UCHUN SURXONDARYO VILOYATI BO'YICHA  
BYUDJET DAROMADLARINING REJA KO'RSATKICHLARI<sup>13</sup>**

**16-jadval**

<b>Daromad turlari</b>		<b>ming. so'm</b>	<b>%</b>
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	41 300 000	3,9
2	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	68 499 999	6,5
3	Yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar, shu jumladan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha	56 300 000	5,4
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	189 800 002	18,0
5	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i	49 000 000	4,7
6	Qo'shilgan qiymat solig'i	228 123 166	21,7
7	Aktsiz solig'i, jami	48 154 000	4,6
	<i>shu jumladan:</i>		
	- aroq	35 555 000	
	- tabiiy vino	167 000	
	- boshqa vinolar	732 000	
	- dizel yoqilg'isi	6 000 000	
	- o'simlik (paxta) yog'i	5 700 000	
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	38 100 000	3,6
9	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	36 499 876	3,5
10	Yuridik shaxslar yer solig'i	10 800 000	1,0
11	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	53 600 001	5,1
12	Yagona yer solig'i	18 700 000	1,8
13	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	8 883 692	0,8
14	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 000 000	0,1

<sup>13</sup> Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari.

15	Davlat boji	34 482 266	3,3
16	Jarimalar	39 100 000	3,7
17	O'zR IIV Yo'l harakati xavfsizligi Bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan undiriladigan yig'imlar	14 300 000	1,4
18	Bozorlar daromadidan tushum	10 299 962	1,0
19	Mahalliy yig'imlar	2 597 249	0,2
20	Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganlik uchun soliq	85 000 000	8,1
21	Boshqa tushumlar	17 600 000	1,7
<b>JAMI</b>		<b>1 052 140 213</b>	<b>100</b>

Soliq tizimining samaradorligi davlat byudjetiga mablag'larni o'z vaqtida va kutilgan darajada kelib tushishini ta'minlash hamda xo'jalik sub'ektlari faoliyatiga optimal darajada ta'sir etishi bilan baholanadi. Soliqlar davlatning markaziy byudjeti bilan birga mahalliy boshqaruv organlarining daromadlarini ham shakllantirishning asosiy manbasi bo'lib hisoblanadi. E'tiborli tomoni shundan iboratki, mamlakatda shakllangan qonunchilik tizimi yoki soliq qonunchiligi uning barcha hududlarida yagona tizim va ko'rinishga ega bo'lsa-da, u hududlar taraqqiyoti va rivojlanish darajasiga turli xil tarzda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, mamlakat hududlari iqtisodiy taraqqiyotining keskin darajada tabaqalashuvi sharoitida bu jarayon yanada jiddiy ko'rinish oladi.

Shu o'rinda mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishning respublikamizda qaror topgan mexanizmini tahlil qilar ekanmiz, mustaqillik yillarida ushbu mexanizmga qator o'zgartirishlar kiritilishiga qaramasdan o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligicha qolayotganligini e'tirof etish maqsadga muvofiq.

Biz mahalliy byudjet daromadlari shakllanish amaliyotiga nazar tashlasak, mamlakatimiz hududlari daromadlarining asosiy qismi hanuzgacha umumdavlat soliqlari hisobiga shakllantirilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Quyida keltirilayotgan 17-jadvalda 2015-2017 yillarda Qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlarini ko'rishimiz mumkin.

2015-2017 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar  
byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari<sup>14</sup> (% hisobida) 17-  
jadval

Viloyatlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i			Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalar uchun yagona soliq to'lovidan ajratmalar			Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovidan ajratmalar			Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i			QQS			Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq			Aksiz solig'i					
																			Yonilgidan (benzin, dizel yoqilg'isi, aviakerosin)			Alkogolli mahsulotlarga (etil spirtidan tashqari)		
	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil
Qoraqalpog'iston Respublikasi	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100				100	100	100
Andijon viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100				100	100	100
Buxoro viloyati	55	53	37	100	100	95	100	100	95	50	50	50	55	53	37			2	55	53	37	50	50	50
Jizzax viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100						
Qashqadaryo viloyati	52	60	29	100	100	95	100	100	95	100	100	100	52	60	29			2				50	50	50
Navoiy viloyati	57	55	37	100	100	100	100	100	100	57	55	37	57	55	37			2				50	50	50
Namangan viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100				100	100	100
Samarqand viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100				100	100	100
Surxondaryo viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100		100	100	100	100	100

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270-sonli, 2015 yil 22 dekabrda PQ-2455-sonli, 2016 yil 26 dekabrda 2699-sonli Qarorlari asosida tayyorlangan

Sirdaryo viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100				100	100	100
Toshkent viloyati	40	30	6	100	100	95	100	100	95	40	40	6	40	30	6			2				50	50	50
Farg'ona viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Xorazm viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100					100	100	100
Toshkent shahri	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2							50	50	20

### **3.BOB. RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASIDA MAHALLIY SOLIQLARNI UNDIRISH MASALALARI VA MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA ULARNI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.**

#### **3.1. RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASIDA SOLIQ SIYOSATI VA UNDA MAHALLIY SOLIQLARNI UNDIRISH MASALALARI.**

Rivojlangan davlatlarda mahalliy soliqlar mexanizmi va respublikamiz iqtisodiyotidagi holati o'rtasidagi umumiy o'xshashliklar mavjud bo'lib, bu o'xshashliklar chet davlatlarda ham hududlarning moliyaviy resurslarning asosiy manbai bu soliqlar va soliqsiz to'lovlar, yuqori budjetdan ajratiladigan ajratmalar (dotatsiya, subventsiya) tashkil etsada, biroq, har bir davlatda markazlashtirilgan va hududiy moliyaviy resurslarni shakllantirishning o'ziga xos farqli jihatlari ham mavjuddir.

AQSH va boshqa bir qator g'arb davlatlarning hududlar moliyaviy resurslarini turli guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga bu hududlarning o'ziga tegishli biriktirilgan va shu hududdan undiriladigan soliqlar sifatidagi moliyaviy resurslar bo'lib, ular to'g'ri va egri soliqlardan iborat bo'ladi. Ikkinchi guruhga shunday moliyaviy resurslar kiradiki, bu xuddi bizning Respublikamizda amalda bo'lgani kabi umudavlat soliqlardan mahalliy hududlarga muayyan foizda ajratmalardan iborat bo'ladi. Respublikamiz budjet tizimida bo'lgani kabi yuqori budjetlardan qo'yi budjetlarga subsidiyalar ajratish boshqa bir qator davlatlarga xususan, AQSh moliya tizimiga ham xosdir. Chunonchi, Vashington mahalliy budjeti 84 foizi biriktirilgan moliyaviy resurslar hisobiga shakllansa, qolgan 16 foizini federal budjetdan ajratilgan subsidiyalar tashkil etadi. Shuningdek Nyu-York mahalliy budjetida subsidiyaning ulushi 32 foizga tengdir. AQShda ham xuddi bizdagi singari hukumat subsidiya, subventsiya va dotatsiyalarni yuqori budjetlardan qo'yi budjetlarga ajratish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etib turadi.

Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish jarayonidagi AQShdagi eng muhim va boshqalardan xususan respublikamizdan farq qiluvchi jihatlardan

biri bu u yoki bu soliq turlarining xududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan stavkalarining qo'llanilishi hamda ayrim soliqlarning ba'zi hududlarda amal qilishi boshqa hududlarda esa amal qilmasligi bilan farqlanadi. Masalan, hududlarning asosiy moliyaviy resurslaridan biri hisoblangan savdo-sotiq uchun solig'i ayrim hududlar uchun 6 foiz bo'lsa, boshqasida 1 foiz va shu kabi tartibda undiriladi. Bundan tashqari iqtisodiy (ishbilarmonlik) faollik solig'i Kaliforniya shtatida qo'llanilsa, boshqa bir hududlarda qo'llanilmasligi holati ham mavjuddir. Savdo-sotiq solig'i shuningdek, ayrim hududlarda xususan, Alyaska, Delaver, Nyu-Djersi shtatlarida amal qilmasada, boshqa hududlarda esa mahalliy hokimiyatlarning o'zlari belgilagan stavkalari asosida tebranib turishi mumkin. Qayd etish joizki, AQShda hududlarning moliyaviy resurslarining shakllanishida mulk solig'i katta salmoqni egallaydi. Masalan, Nyu-York shtati mahalliy budjetida bu soliq hisobiga jami moliyaviy resurslarning 40 foizga yaqini shakllanadi, o'z navbatida, bu soliq turi ham barcha hududlar uchun bir xil tartibda belgilanmaydi. AQShda mulk solig'ining o'rtacha stavkasi 1,4 foizni tashkil etsada, bu Illinoys shtatida uning stavka miqdori 6,7 foizga tengdir. Bundan tashqari AQShda hududlarning moliyaviy resurslari ayrim turdagi mahsulotlarni sotish uchun litsenziyalar, uy hayvonlarini saqlash uchun ruxsatnomalar va shu kabilardan tushgan yig'implardan ham shakllanadi. Ayni bu holatning ko'pchiligi respublikamiz iqtisodiyoti uchun xosdir.

Buyuk Britaniyada esa mahalliy budjetlar daromadlarining asosiy manbai bo'lib kuchmas mulklar, yer, uy-joy, magazinlar, zavod va fabrikalardan undiriladigan soliq hisoblanadi. Mol-mulk qiymati muntazam qayta baholab boriladi. Soliqqa tortish maqsadlarida mol-mulkni baholashni ichki daromadlar Boshqarmasi qoshidagi maxsus baholash komissiyasi amalga oshiradi.

O'zgaruvchan inflyatsiya sharoiti soliqqa tortish maqsadida mulkni muntazam qayta baholab borish O'zbekiston soliq tizimi uchun ham foydadan xoli bo'lmaydi. Shuningdek, mol-mulkni qayta baholashni soliqqa tortish

maqsadlariga muvofiqlashtirish uchun qayta baholash organlarining soliq xizmati qoshida tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

AQShda esa mol-mulk solig'i mahalliy soliq sifatida asosiy o'rinni egallagani holda, 100 ga yaqin turli xil mahalliy soliq turlari ham mavjud. Har bir shtatda turfa soliq turlarini uchratish mumkin: masalan Koliforniyada faol ishbilarmonlik solig'i olinadi, bu soliq ob'ektlari yillik oborot (2,5 foizgacha) va korxonalar ish haqi fondi (1,6 foiz) hisoblanadi.

Fransiya budjetida mol-mulkdan soliq yuqori salmoqqa ega. Bu soliqqa mol-mulk, mol-mulk huquqi va qimmatbaho qog'ozlar tortiladi. Mol-mulk tarkibiga binolar, sanoat va qishloq xo'jalik korxonalari, harakatlanuvchi mulk, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqalar kiradi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Fransiyada ba'zi mol-mulk ushbu soliq turidan qisman yoki to'liq ozod etilgan. Shular jumlasiga professional faoliyat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan mol-mulk, qishloq xo'jaligiga oid ba'zi mol-mulk turlari, tarixiy yodgorlik buyumlar, badiiy va kolleksiya buyumlari kiradi. Soliq to'lovchilar har chorak va yil yakuni bo'yicha mol-mulkining haqiqiy o'rtacha qoldiq qiymatidan kelib chiqib, yil boshidan o'sib borish tarzida mustaqil ravishda tuzatishlar kiritib boradilar. Mol-mulk solig'i stavkalari progressiv xarakterga ega.

Germaniya Respublikasida budjet tizimining asosiy daromad manbai bo'lib jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, korporatsiyadan olinadigan soliq qo'shilgan qiymat solig'i, tadbirkorlik (xunarmandchilik) solig'i, mol-mulk solig'i, er solig'i, yer uchastkalarini sotish jarayonidan undiriladigan soliq, sug'urta badallari, merosdan olinadigan soliq, transport solig'i, bojxona bojlari va davlat yig'implari hamda ayrim turdagi mahsulotlar uchun aktsiz soliqlari va shu kabilar hisoblanadi. Bu davlatda ham hududlarning moliyaviy resurslarini shakllanishida yuqori budjet bo'g'inlaridan ajratiladigan subsidiya, subventsia va dotatsiyalar ham alohida o'rin egallaydi. Shuningdek, umumdavlat soliqlaridan xuddi O'zbekiston Respublikasidagi kabi qo'yi budjetlarga muayyan foizlarda ajratmalar qilinadi. Masalan, korporatsiyadan olinadigan soliqning 50 foizi federal

budjetga, 50 foizi hududlarga. Davlat budjeti daromadlarini shakllanishida eng katta salmoqqa ega bo'lgan ushbu soliqlardan tushadigan tushumlarning 42,5 foizi federal budjetga, qolgan 57,55 foizi esa turli xil darajadagi va maqomdagi mahalliy budjetlar ixtiyoriga yo'naltiriladi.

Sharq davlatlarida xususan Yaponiyada ham AQSh va G'arbiy Evropa davlatlari kabi umumdavlat va mahalliy soliqlar amal qilib ular hisobiga federal va hududlarning moliyaviy resurslari shakllanib boradi. Bu erda mahalliy soliqlarga nisbatan umumdavlat soliqlarining hissasi yuqori bo'lib ular hisobiga budjet jami moliyaviy resurslarining 64 foizidan ko'prog'i shakllanib qolgan qismi mahalliy soliqlar hisobiga to'g'ri keladi.

Yaponiya soliq tizimida hududlarning budjet daromadlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratiladi. 2010-yillarning boshlarida hududlarning umumiy moliyaviy resurslari 80,41 trln. ienani tashkil etib, ulardan mahalliy soliqlar 33,45 trln. iena yoki mahalliy budjet daromadlarining 41,6 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari 14,33 trln. iena yoki 17,8 foizi umumdavlat soliqlaridan berilgan ajratmalarga to'g'ri keladi. Hududlarga bu davrda maqsadli tarzda 10,65 trln. iena (mahalliy budjetlarning 13,2 foizi) dotatsiya berib, qolgan 20,3 trln. iena soliqsiz to'lovlar hissasiga to'g'ri kelgan. Mahalliy budjet moliyaviy resurslariga e'tibor beradigan bo'lsak, jami moliyaviy resurslar 33,45 trln. ienani tashkil etib, ularning 35,6 foizi daromad solig'i, 41,1 foizi mol-mulk solig'i qolgan 27,2 foizini esa iste'mol solig'i tashkil etadi.

Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, Respublikamiz soliq tizimida mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish mexanizmi bilan chet davlatlar xususan Amerika, G'arbiy Evropa davlatlari, Yaponiya va shu kabi iqtisodiy rivojlangan davlatlarda ushbu jarayonlarning holati va harakati o'rtasida umumiy o'xshashliklar mavjuddir. Bu o'xshashliklar federal va hududlarning budjet daromad soliqlar va soliqsiz to'lovlardan shakllanishi, umumdavlat soliqlardan hududlarga muayyan foizlarda subventsia, subsidiya va dotatsiyalar shaklida ajratmalar qilinishi budjet tizimi o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish va shu kabilardan iboratdir.



### 3.2. MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA MAHALLIY SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.

Mahalliy byudjetlarni yuqoridan turib rejalashtirilishi ularning daromadlarini yuqori byudjet daromadlari hisobidan beriladigan mablag`lar hisobidan shakllanishi, mahalliy hokimiyatlarning mustaqilligini va javobgarligini kamaytirib yubordi. Bunday amaliyotda mahalliy hududlarning o`ziga xosligidagi muammolar hisobga olinmas edi. Mahalliy byudjetlar hududlarining mamlakatimiz daromadini yaratishdagi ulushiga qarab emas, balki sub'ektiv asosda ishlab chiqilgan norma va normativlar asosida rejalashtirilardiki bunda mahalliy byudjetlarning daromadlari va hududlarda yaratilgan milliy daromad o`rtasida bog`lanish bo`lmasdi. Bu o`z navbatida mahalliy boshqaruv organlarining hudud milliy daromadini oshib borishdagi qiziqishini bo`g`ib qo`yar edi. Mahalliy byudjet daromad manbalari ham yuqoridan turib sub'ektiv asosda belgilab berilardi. Byudjet harajatlarini qat'iy chegaralanganligi va xarajatlar manbai daromadlar bilan asosan yuqori byudjetlardan beriladigan mablag`lar bilan ta'minlanganligi mahalliy boshqaruv organlarini qo`shimcha daromadlar manbai izlab topishdagi qiziqishini cheklab qo`ygan edi.

Respublikamizda islohotlarning joriy yillarida mahalliy boshqaruv organlariga katta e'tibor berilmoqda. Mahalliy boshqaruv organining moliya byudjet huquqlari dastlab o`z aksini 2017-2021 yillardagi harakatlar strategiyasida o`z aksini topdi. Mahalliy hokimiyatlarga byudjetlarni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlarga yig`imlarni xosil qilish huquqlari berildi. Mahalliy hokimiyatlarning moliya-byudjet huquqlari o`z rivojini topdi. Iqtisodiy islohotlarni hozirgi bosqichida, rivojlangan, bozor iqtisodiga o`tgan davlatlarning tajribalarini chuqur o`rgangan holda O`zbekistonning o`ziga xos milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda soliq-byudjet qonunchiligimizni yanada rivojlantirishimiz zarur. Bunda asosiy e'tibor quyidagilarga:

-Mahalliy hokimiyat organining mahalliy byudjetlarni rejalashtirishni tasdiqlash va bajarishdagi huquqlarini kengaytirishga.

-Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarning o`zaro aloqalarini qonuniy asoslarini yaratishga, ya'ni barcha turli byudjetlarning o`zaro majburiyatlari, huquqlari o`z aksini topishi lozim. O`zbekistonning unitar davlat ekanligidan kelib chiqib asosiy e'tiborni mahalliy byudjetlarni davlat byudjetining tarkibiy qismi sifatida mustaqilligini oshirishga.

-Respublika va mahalliy byudjetlar o`rtasida daromadlar va xarajatlarning qonuniy chegarasini yaratishga qaratilishi lozim deb hisoblaymiz.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy muvozanat va barqaror iqtisodiy o'sishni saqlab qolish, Davlat byudjeti balansliligi va barqarorligini ta'minlash, davlat qarzining asossiz oshishiga yo'l qo'ymaslik, aholi daromadlari va turmush darajasini yanada yuksaltirishni ta'minlash, chuqur tarkibiy o'zgartirishlar hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritish, byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, hududlar daromad bazasini oshirish hamda mahalliy byudjet xarajatlarini optimallashtirish hisobiga subvensiya oluvchi hududlar sonini qisqartirishdek muhim yo'nalishlarga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga muvofiq 2017-2021 yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Jumladan, xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish hamda sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish ham alohida ustuvor yo'nalishlar sifatida qayd etilgan<sup>15</sup>.

Shu jihatdan, mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini mustahkamlash, yuqori byudjetga bog'liqlik darajasini kamaytirish, bosqichma-bosqich subvensiya

---

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017 yil 7 fevral.

ulushini pasaytirish hamda kelgusida ularni to'liq subventsiyadan chiqarish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, mahalliy byudjetlar Respublika byudjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy xokimiyatlarning faoliyat yuritishlarida moliyaviy asos bo'lib hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar faoliyati mahalliy talab-ehtiyojlarni to'laroq qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarining bajarilishi bilan uzviy bog'liq holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Mahalliy byudjetlar mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda asosiy manba va mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining iqtisodiy asosi bo'lganligi tufayli byudjetga qo'shimcha mablag'lar jalb etish manbalarini izlab topish va mavjud mablag'larni samarali sarflanishini ta'minlash orqali byudjet siyosati samaradorligini ta'minlaydigan asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Mahalliy byudjetlar faoliyati barqarorligini ta'minlovchi omil – ular daromad bazasini mustahkamlash hisoblanadi<sup>16</sup>.

Bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida 2017 yil 18 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma'murchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni qabul qilindi.<sup>18</sup>

Farmonda soliq ma'muriyatchiligi sohasida, shu jumladan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarning mavjudligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi ta'kidlanib, ular alohida ko'rsatib ham o'tilgan, jumladan:

–soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish holati soliq ma'muriyatchiligining shaffofligini, soliq solish masalalarida manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlik qilish hamda

---

<sup>16</sup> Qosimova G.A., Shaakramov K. Mahalliy byudjetlar. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”.2012. 260 b. <sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma'murchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 18.07.2017 yil PF-5116-sonli farmoni.

nazorat samaradorligini, shuningdek davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlamayotganligi;

–soliq nazoratini tashkil qilish mexanizmlarining mukammal emasligi, shu jumladan soliq tekshiruvni ob'ektlarining zarur tahlilsiz belgilanishi soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash va ularni barvaqt profilaktika qilish samaradorligini pasaytirayotganligi;

–soliq organlarining Davlat byudjetiga tushumlar to'liqligini ta'minlash faoliyati ustidan tashqi nazorat mexanizmlarining mavjud emasligi soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish va soliq to'lovchilarni hisobga olish imkoniyatini bermayotganligi;

–bozorlar va savdo komplekslari faoliyati ustidan samarali soliq nazorati o'rnatilmaganligi mahalliy byudjetlarni to'ldirish uchun mavjud rezervlarni to'liq safarbar qilish, shuningdek naqd pul mablag'larining kafolatli qaytishini ta'minlamayotganligi;

–soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish ko'rsatkichlarini yaxshilash, korrupsiya ko'rinishlarini profilaktika qilish, shuningdek soliq organlarida xizmat qilishga halol va yuqori malakali kadrlarni jalb etish maqsadida davlat soliq xizmati organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish talab etilishi .

Hozirgi kunda soliqqa oid qonunbuzarliklarga yo'l qo'ygan korxonalaridan undirilgan soliq summasining umumiy soliq summasidagi ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Bularning saqlanib qolayotgani hali soliq to'lovchilarimizning davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyati, ularning ma'naviy saviyasi talab darajasida yetarli emasligidan darak beradi. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatida har kuni o'nlab qonunbuzarliklar aniqlanmoqda. Ular tomonidan olib borilgan soliq nazorati natijasida byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha bir qancha holatlarni ko'rib chiqamiz.

2016 yilda soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlari bo'yicha davlat soliq xizmati organlari tomonidan o'tkazilgan kameral nazorat

natijasida 166528 ta soliq to'lovchilarning hisobotlarida xatoliklar aniqlanib, davlat byudjetiga qo'shimcha 693,2 mlrd. so'm mablag' undirildi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan o'tkazilgan hujjatli va qisqa muddatli tekshirishlarda qo'shimcha aniqlangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish hisobidan 656,8 mlrd. so'm byudjetga qo'shimcha mablag'lar undirildi.

Soliq kodeksining 20-moddasiga muvofiq, soliq qarzi – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, shu jumladan Soliq kodeksida belgilangan muddatida to'lanmagan moliyaviy sanksiyalardan iborat .

2017 yilning 1 yanvar holatiga soliq to'lovchilarning jami soliq qarzi 9299,5 mlrd. so'mni tashkil etadi.<sup>17</sup> Shundan:

–faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining soliq qarzi 8204,2 mlrd. so'mni;

–faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining soliq qarzi 1095,3 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Jami soliq qarzining 27,3 foizi – Qashqadaryo viloyatiga, 22,7 foizi – Toshkent shahriga, 7,6 foizi – Buxoro viloyatiga, 7,5 foizi – Toshkent viloyatiga va 6,6 – foizi Farg'ona viloyatiga to'g'ri keladi.

Soliq qarzining 7905,6 mlrd. so'mi yoki 85 foizi monitoringga olingan vazirliklarga va 1323,1 mlrd. so'mi yoki 14,2 foizi fermer xo'jaliklariga to'g'ri keladi.

Soliq ma'muriyatchiligini amalga oshirishdagi bir qator muammolar mavjudligi sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida qayd qilingan farmoniga asosan quyidagilar O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo'nalishlari etib belgilandi:

–soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

---

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining yillik hisoboti materiallari.

–faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklashga har tomonlama ko'maklashish, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish, o'zaro hisob-kitoblar mexanizmini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo'l qo'ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;

–soliq solish masalalarida, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirliklar va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish.

Farmon bilan soliq organlari va halol soliq to'lovchilar o'rtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal qilishda har tomonlama ko'maklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini nazarda tutuvchi soliq nazoratining zamonaviy shakli – soliq monitoringi joriy etilmoqda.

Ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligi funksiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan amalga oshirish yuklatilmoqda.

Vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga to'qnash kelgan halol soliq to'lovchilarga soliq ta'tillari berish tarzida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi shakli nazarda tutilmoqda.

O'tkazilgan kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar yuzasidan soliq to'lovchilar tomonidan asoslar taqdim etilmagan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini sud tartibida undirish joriy etilmoqda.

Bundan tashqari, Toshkent, Nukus shaharlarida va viloyat markazlarida soliq organlariga hisob-kitoblar haqidagi ma'lumotlarning onlayn rejimida berilishini ta'minlaydigan nazorat-kassa mashinalarini qo'llash orqali naqd pul tushumi ustidan avtomatlashtirilgan nazorat tizimi joriy etiladi, respublikaning qolgan hududlarida mazkur tizim bosqichma-bosqich amalga kiritiladi.

Mamlakatimizda mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini mustahkamlash borasida quyidagi chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- sanoat ishlab chiqarish sohasida yangi korxonalar tashkil etish;
- xizmat ko'rsatish, servis korxonalari tashkil etish;
- mavjud korxonalarni sog'lomlashtirish, modernizatsiya qilish, qayta jihozlash;
- istiqbolsiz ishlab chiqarish korxonalarini yangi mulk egalariga sotish orqali sog'lomlashtirish;
- soliq to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlarning muddati tugashini hisobga olish;
- soliqlar yig'uvchanligini oshirish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda olib borilayotgan bugungi kundagi moliyaviy siyosat, yuqoridagi kabi farmonlarning qabul qilinishi soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirishga xizmat qiladi, uning shaffofligini ta'minlaydi, bu esa, shubhasiz, mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash asosidir.

Xozirgi sharoitda mahalliy byudjetlardan amalga oshirilayotgan xarajatlarni hisobga olgan holda, davlat asosiy e'tiborini ularni daromadlar bilan ta'minlashiga qaratib kelmoqda. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllanishidagi dastlabki yo'nalishni O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday ta'kidlagan edilar: “Davlat byudjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, byudjetlarni mustaxkamlash zarur. Bu esa mintaqalar mustaqilligini oshirish ularning tashabuskorligini byudjetning ijrosidan manfaatdorligi va bu boradagi ma'suliyatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari bu narsa mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topishga rahbatlantiradi, joylarda byudjet intizomini mustaxkamlaydi”<sup>18</sup>.

---

<sup>18</sup> Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoitini yaratish-asosiy vazifamizdir. Toshkent haqiqati.2007 y. 14-fevral.

Mahalliy byudjet daromadlarini ko'paytirib borish mahalliy hokimiyatlarni hududning ishlab chiqarishini rivojlantirishidagi mustaqilligini oshishi bilan bog'liqdir. Mahalliy hokimiyatlar hududlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida korxonalar, tashkilotlar faoliyatini iqtisodiy tartibga solishni amalga oshirishi, kichik biznesni rivojlantirishi, chet el kapitali ishtirokidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan va xalq iste'moli mollari ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalarini rag'batlantirishi yoki cheklashda soliq imtiyozlari va ustamalarni o'rnatish hamda o'z byudjetlari hisobidan imtiyozli kredit berib borishni joriy etish maqsadga muvofiq bo'lib, buning uchun eng avvalo bu boradagi ishlarning qonuniy asoslarini yaratish lozim.

Mahalliy soliqlarni soliqqa tortishning rivojlanish jarayonida ularning fiskal, boshqaruv mohiyatiga ega ekanligi aniqlangan. Ushbu soliqlarning asosiy vazifasi bo'lib, mahalliy byudjetni u o'z funksiyalarini bajarishi uchun moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hisoblanadi. Boshqaruv mohiyati esa mavjud mulkiy tabaqalanishni qisqartirish, noishlab chiqarish jamg'armalarini imkon qadar kamaytirish hamda jamiyat uchun maqbul soxalarga yo'naltirishda ko'rinadi. Shu bilan birga soliq to'lovchi mulkdorlar soliq imtiyozlari yordamida rag'batlantirilishini tashkil ham etadi.

Mahalliy soliqlarning fiskal va boshqaruv nisbatlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning maqsadlariga u yoki bu bosqichida xalq etadigan vazifalarga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Mahalliy soliqlarni soliqqa tortishning ushbu ikki yo'nalishidan, Respublikada yanada samarali foydalanish zarur. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar turli guruhlarining mulkiy holati shakllanayotgan hozirgi sharoitda mahalliy soliqlarining boshqaruv mohiyati birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Davlat mulkdorlar faoliyatini boshqarish maqsadida mahalliy soliqlardan ikki tomonlama foydalanishi mumkin: bu bir tomondan, mulkdorlarning foydalanilmayotgan mol-mulklarini (egallik huquqlarini) soliqqa tortishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, davlat uchun maqbul bo'lgan, ya'ni passiv egalikdagi faoliyatdan faol (aktiv) xo'jalik faoliyatiga o'tgan shaxslar uchun soliq



imtiyozlarini yaratishdir. Bunday sharoitda mol-mulkga joriy etilgan soliq, vosita sifatida qaralib, mulkdorlarni xo'jalik faoliyatida o'zining mol-mulkidan samarali foydalanishga chorlaydi yoki egalik huquqlarini o'zgartirish yo'li bilan faol shaxslar mol-mulkdan yanada samarali foydalanishiga rag'batlantiradi.

Amaldagi qoidalarga ko'ra hozirda mahalliy soliqlarni to'lovchilarning aksariyati bir xil darajadagi soliq stavkasi bo'yicha soliqqa tortilayotir. Bu, o'z navbatida, soliq to'lovchilarga nisbatan bir xil yondashilayotganligidan dalolat beradi. Fikrimizcha, masalani bu tarzda xal etishga bir oz erta. Chunki, soliq to'lovchilarga nisbatan bir xil talab qo'yilishi, o'z navbatida, ularning barchasi bir xil sharoitga ega bo'lgan taqdirda o'z ma'nosiga egadir. Shuning uchun, masalan mol-mulkdan olinadigan soliq stavkasini soliq to'lovchilar mol-mulkini qayta baholash natijalari va samaradorlik darajasini hisobga olgan holda belgilash maqsadga muvofiqdir. Chunki, qayta baholash va samaralilik ko'rsatkichlarining darajasiga qarab belgilanadigan soliq stavkasi, qayta baholashdan keyingi yillarda amaldagi soliq stavkasiga nisbatan pastroq o'rnatilmog'i kerak va bu stavka davriy qayta baholashni inobatga olgan holda o'zgarmas harakteriga ega bo'lishi lozim. To'g'ri, mol-mulkdan olinadigan soliq stavkasini o'rnatishga bunday yondashish soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan jarayonni bir oz murakkablashtiradi. Lekin masalaga real vaziyatni hisobga olgan holda yondashish zarurligini e'tiborga oladigan bo'lsak ish tutishning bu shakli maqsadga muvofiqligi yaqqol ko'rinadi.

Soliq sub'ektlarining ko'payishi, ular real daromadining oshishi, soliq tushumlari miqdorining o'sishiga olib keladi. Ammo soliqlar soni va stavkalarini oshirish iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun iloji bo'lsa respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ekanligini

hisobga olgan xolda jismoniy shaxslardan transport vositalarini iste'moli uchun undiriladigan soliq stavkasini ma'lum vaqtga stabillashtirish lozim.

To`g`ri soliqlar bo`yicha imtiyozlar ma`lum muddatlarda soliq yukini kamaytirib, korxonalarining moliyaviy faoliyatini qisman mustahkamlagan va bilvosita soliqlardan ozod qilishni nazarda tutgan bo`lsada, lekin amalda ishlab chiqarishni doimiy rag`batlantirish xususiyatiga ega emas. Shu tufayli soliq solishning soddalashtirilgan tizimi sifatida berilgan soliq imtiyozlari o`tkinchi ahamiyatga ega bo`lib, ular uzoq vaqt amal qilganda salbiy natijalar berishi mumkin.

Chunki: Birinchidan, yagona yer solig`ini hisoblashda daromad va xarajatlar hajmi, tabiat inijliklari hisobga olinmaganligi sababli ob-qavo noqulay kelishi oqibatida xarajatlar oshib, zarar ko`rilganda ham soliq undiriladi. Natijada soliqlardan boqimandalar o`sib to`lov tizimi izdan chiqadi.

Ikkinchidan, yagona yer solig`ini hisoblashda yer maydonining unumdorligini aniqlovchi bal-bonitetlarga nisbatan yuqori stavkalarining belgilanishi qishloq xo`jaligida yer unumdorligini oshirishga to`siq bo`ladi. Soliq to`lashning soddalashtirilgan tizimi joriy etilgandan so`ng, ushbu korxonalarining faoliyati bir muncha barqarorlashgan bo`lsada, endilikda bu tizim tadbirkorlikni rag`batlantirishga emas, balki xufiyona iqtisodiyotni (qo`sh buxgalteriya hisobini yuritish, daromadlarni yashirish va boshqalarni) rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun soddalashtirilgan tizimga o`tgan korxonalarni bosqichma-bosqich umumiy soliqqa tortish tartibiga o`tkazish va soliqqa tortishni birxillashtirish asosida ular samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

To`g`ri soliqlarning soliq to`lovchilar faoliyatiga ta`siridagi eng muhim muammolardan biri bu bir xil soliq ob'ektiga ikki xil soliq turining qaratilganligidir.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalar mahalliy soliqlarni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan asoslashga yo`naltirilgan bo`lib, hozirgi sharoitda ushbu soliqlar turidan yanada samaraliroq foydanishni ta'minlashga qaratilgan.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotdagi tub islohotlar ayrim soha va tarmoqlar qatori mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha ham takomillashtirishni taqozo etmoqda. Hozirgi kunda mahalliy soliqlardan tushayotgan daromadlar mahalliy budjetlarning daromadlarida katta salmoqqa ega emas. Bizning fikrimizcha bu nafaqat mahalliy soliqlarni joriy qilish imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaslik bilan balki mahalliy budjetlarni daromadlarini tartibga solishda qo'llanilayotgan amaliyot bilan bog'liqdir. Umumdavlat soliqlaridan mahalliy budjetlar daromadlarini tartibga solish maqsadida ajratmalar ajratish foizini viloyatlar va yillar bo'yicha o'zgarib turishi, undan tashqari mahalliy budjet xarajatlarini moliyalashtirishni ularni daromadlar rejasini bajarilishi bilan bog'lanmaganligi natijasida mahalliy hokimiyatlarni budjet daromadlarini oshirib borishdagi iqtisodiy qiziqishini cheklab qo'ymoqda.

Mahalliy budjetlarni tartibga solish amaliyotini tahlil qilish shu narsani ko'rsatadiki, haligacha eski mexanizmdan qo'llanib kelinmoqda, ya'ni soliqlarni ishonchli turlari avvalom bor markaziy (davlat) budjetiga yig'iladi, so'ngra uning ma'lum foizi mahalliy budjetlarga xarajatlarni qoplashga birlashtirilgan daromadlari yetmasa ajratma sifatida har yili har xil foizda qoldiriladi. Bu mexanizm mahalliy hokimiyatlarni birlashtirilgan daromadlarini yil sayin ko'paytirib borishga manfaatini o'yg'otmaydi. Yana shu narsa ma'lum bo'ladiki, davlat soliqlaridan ajratma darajasi belgilanayotganda ularning ulushi budjet daromadlarini qancha qismiga teng kelishiga e'tibor qilinmaydi.

Shuning uchun bizning fikrimizcha, umumdavlat soliqlaridan ajratiladigan foizlar belgilanayotganda hech bo'lmaganda 5 yilga o'zgarmas stavkada belgilanishi lozim. Bundan tashqari har bir umumdavlat soliqlaridan ajratiladigan foiz miqdori bu soliqdan tushadigan tushumni ulushi budjet daromadlarini 1/3 qismidan oshmasligi shart deb hisoblaymiz. Shundagina mahalliy hokimiyatlarni iqtisodiy manfaatdorligi oshadi.

Mahalliy hokimiyatlar ixtiyorida (tumanlarda) zaxira fondlarini tashkil qilish. Bu fondlar asosan hududni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq ko'zda tutilmagan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tashkil qilinib, bu fondlarning budjet daromadlari sifatida mahalliy budjetdan belgilangan miqdorda ajratiladigan mablag'lar hamda chetdan jalb qilingan har xil budjet daromadlaridan foydalanish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni joriy etishni tavsiya etamiz:

1. Yerdan soliq undirishning xalqaro amaliyotiga o'tilishini ta'minlash orqali soliq bo'yicha hisob-kitoblarni soddalashtirish zarur.
2. Soliq Kodeksiga mahalliy soliqlarga berilgan imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Bu esa, soliq qonunchiligi va soliqqa tortish metodologiyasida mavjud nomutanosiblikni tugatish imkonini beradi .
3. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasi turar- joylar, imoratlarning inventarizatsiyalashini amalga oshiradigan davlat organlari tomonidan qayta baholangan qiymatiga nisbatan qo'llanilish tizimini takomillashtirish lozim.
4. O'zbekiston Respublikasida yagona yer solig'i yerlarning me'yoriy qiymati asosida soliqqa tortilish tizimi amal qilib kelsada bu jarayonda yerning me'yoriy qiymatini aniqlash jarayonida davlatning vakolatli organi tomonidan tumanlar bo'yicha soddalashgan mezonlar ishlab chiqish kerak.
5. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga soliq to'lashda ilg'or zamonaviy texnologiyalar foydalanish orqali soliq to'lash tartibini kengaytirish bo'yicha o'quv seminarlari joriy etish lozim.

6. Soliq hisoblashda soliq qonunchiligini takroriy buzilishlarga yo'l qo'ygan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ta'sir choralarini kuchaytirish kerak.

Mahalliy byudjetlar daromad bazasining yanada mustahkamlanishi, byudjetlarni shakllantirish yuzasidan vujudga kelgan munosabatlarni isloh kilishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishda mulkka, yerga, resurslarga soliq solishning samaradorligini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy byudjetga to'liq tushadigan mulk va yer solig'ining tushumlarini real oshirishda ushbu soliqning hisoblanish uslubiyoti va imtiyozlari tizimini takomillashtirishda yuqorida keltirilgan tavsiyalar muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2017 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. -T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2007 yil dekabr 52 (1) –soni. 219 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. “Davlat soliq xizmati to'g'risida”. 1997 yil 29 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” 07.02.2017 y. N PF-4947
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma'murchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 18.07.2017 yil PF-5116-sonli farmoni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori «O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida» 2017 yil 29 dekabr PQ-3454.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori «O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida» 2016 yil 27 dekabr PQ-2699.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbiri to'g'risida”. 2009 yil 26 yanvar PQ-1047.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Mahalliy nooziqovqat iste’mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. 2009 yil 28 yanvar PQ-1050.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi. «Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbarfaoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak» // “Xalq so‘zi” gazetasi. **2017 yil 16 yanvar.**

11. Karimov I.A., «Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida»- T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2005, - 525 bet

12. Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. М.: “Бератов-Пресс”. 2002. С.

13. Abdullaev Yo.A., Yaxyoev Q.A. Soliq: 100 savol va javob. T.: «Mehnat», 1997 y.

14. Beknozov N. “Iqtisodiyot nazariyasi”. T. «Mehnat», 2005. 15. Вахобов А., Срожиддинова З. Государственный бюджет. Учебник. - T.: Иктисод-молия. 2007.- 452 с

16. Vahobov A., Qosimova G., Jamolov X. Budget-soliq siyosati yaxlitligi. O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisod va moliya. 2005.

17. Jo‘reav A, Toshmatov Sh. Soliqlar va soliqqa torish.. O‘quv qo‘llanma.. T.: “Norma”, 2009

18. Завалишина И. А. Налоги: теория и практика. T.: "Мир экономики и права", 2004.

19. Yo‘ldoshev, Y. Tursunov. «Moliya huquqi». Toshkent. «Mehnat». 1999. -246.

20. Ли В. Проблемы обеспечения устойчивости бюджетных

поступлений. // Экономическое обозрение. 2014. №7. стр 3

21. Malikov T. Soliqqa tortishning dolzarb muammolari T. Akademiya 2002.

22. Malikov T.S. Soliq yukining og‘irligini keskin kamaytirish kerakmi? // Soliq akademiyasi. — Toshkent, 2006. — 32 b. 23. Пансков В. П., Князев В. Г. Налоги и налогообложение. — М.: МСФЭР, 2013. – с

24. Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Юрайт”, 2012. С. 254-255. Пансков В. П., Князев В. Г. Налоги и налогообложение. — М.: МСФЭР, 2003. - с. 57-59.

26. Toshmatov Sh. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli.

Monografiya. T.: Fan va texnologiya. 2008-203bet

27. Toshqulov A.H Tulakov U. T Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: mohiyati, sabablari va ta'siri. Termiz. “Poligraf-Nashr” 2009. 36bet 28.

Т.Юткина, Налоги и налогообложение Уч.пособиеМ.: ИНФРА-М 2012

29. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T.: «Moliya» nashriyoti, 2003 y.

30. Shaulov D., Kan T., Soliq qonunchiligi asoslari T.: Iqtisod va huquq dunyosi 2000

31. ”Soliqlar va bojxona xabarlarlari” gazetasi 2016-2018 yil sonlari.

32. “Norma” huquqiy-me'yoriy axborotlar tizimi.

33. Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi hisobot materiallari 2017-2018 yillar.

### **Internet saytlari**

1. <http://www.krizis.ru>
2. <http://www.mircrizis.ru>
3. <http://www.finansovyi-krizis.ru>
4. <http://www.krizisworld.ru>
5. <http://www.uza.uz>
6. <http://www.undp.uz>
7. <http://www.crisis-blog.ru>
8. <http://www.gov.uz>
9. <http://www.mf.uz>
10. <http://www.soliq.uz>
11. <http://www.mfa.uz>
12. <http://www.mvp.uz>
13. <http://www.edu.uz>

## MUNDARIJA

**KIRISH.....**

**1.BOB. MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI VA UNDA MAHALLIY SOLIQLARNING TUTGAN O'RNI.....**

1.1. BUDJET TIZIMIDA MAHALLIY BUDJETLARNING AHAMIYATI VA ULAR DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....

1.2. MAHALLIY SOLIQLARNING SOLIQ AMALIYOTIDA QO'LLANILISHI HAMDA RIVOJLANISHI.....

**2.BOB. ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA MAHALLIY SOLIQLARNING AMAL QILISH JARAYONI VA ULARNING BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI**



**AHAMİYATI.....**

2.1. ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA MAHALLIY SOLIQLARNI HISOBLASH VA BUDJETGA TO‘LASHNING XUSUSIYATLARI.....

2.2. MAHALLIY SOLIQLARNING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI.....

**3.BOB. RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASIDA MAHALLIY SOLIQLARNI UNDIRISH MASALALARI VA MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA ULARNI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI. ....**

3.1. RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASIDA SOLIQ SIYOSATI VA UNDA MAHALLIY SOLIQLARNI UNDIRISH MASALALARI.....

3.2. MAMLAKATIMIZ SOLIQ TIZIMIDA MAHALLIY SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....

**XULOSA VA TAKLIFLAR.....**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....**